

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**“TABIIY FANLAR” FAKULTETI**  
**“Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrası**

**FARG`ONA IQTISODIY RAYONIGA IQTISODIY GEOGRAFIK TA'RIF**

**mavzusidagi**

# Bitiruv malakaviy ishi

**Bajardi:** “Geografiya o`qitish metodikasi”  
ta'lim yo`nalishi IV- kurs talabasi  
**Rustamova Mohiba Raxmatulla qizi**

\_\_\_\_\_  
**Imiy rahbar: dots. Kalonov B.H.**  
\_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.  
Kafedraning \_\_\_\_\_ sonli bayyonomasi « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 yil.



**5. Chizma ishlar ro'yxati** (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**5. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)**

№.	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi I.F.Sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

**7. Bitiruv ishini bajarish rejasi**

№.	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari \_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, sharifi) \_\_\_\_\_ (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim \_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, sharifi) \_\_\_\_\_ (imzo)

Topshiriq berilgan sana 20\_\_ yil

**Navoiy davlat pedagogika instituti**  
**Tabiiy fanlar fakulteti**  
**“Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrası**

2017 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

№ \_\_\_\_\_ yig`lish bayoni

**K O` C H I R M A**

**Qatnashdilar:** Kafedraning barcha professor-o`qituvchilari

**K U N    T A R T I B I:**

2016-2017 o`quv yili “Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi bo`yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to`g`risida

**E S H I T I L D I:**

**Bitiruvchi** \_\_\_\_\_ ning

**Mavzusi:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

**Ilmiy rahbar:** Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta`lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

**Q A R O R    Q I L I N D I:**

**Bitiruvchi** \_\_\_\_\_ ning

---

---

---

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

**Kafedra mudiri:**

**kat. o`qit. Yo. R. Buranov**



## MUNDARIJA

Kirish.....

### ***I.BOB. FARG`ONA IQTISODIY RAYONINING TABIIY SHAROITI VA TABIIY RESURSLARIGA IQTISODIY BAHO***

1.1.Andijon viloyatining geografik o`rni, tabiiy sharoiti va tabiiy  
resurslari.....

1.2. Namangan viloyatining geografik o`rni, tabiiy sharoiti va tabiiy  
resurslari.....

1.3. Farg`ona viloyatining geografik o`rni, tabiiy sharoiti va tabiiy  
resurslari.....

### ***II.BOB. FARG`ONA IQTISODIY RAYONI MAVZUSINI O`QITISH METODIKASI***

2.1. Farg`ona iqtisodiy rayoni mavzusining maktab geografiyasi  
ta'limida tutgan o`rni.....

2.2. Farg`ona iqtisodiy rayonini mavzusini o`qitishning maqsadi,  
vazifalari va ta`lim- tarbiyaviy ahamiyati.....

2.3. Farg`ona iqtisodiy rayoni mavzusini o`qtishda qo`llanadigan  
inovatsion metodlar.....

Xulosa.....

Adabiyotlar.....

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'rsatilgan sohalarni amalga oshirib borib, jamiyatimizning kelajagi uchun har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan. Dasturda ko'rsatilgan dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari jamiyat taraqqiyotini har tomonlama yetuk kadrlarsiz, ayniqsa o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Malakaviy pedagogik mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liqdir. Ayniqsa hozirgi axborot texnologiyalariga tayangan holda geografik hodisa, voqealarni hamda iqtisodiy geografik tushuntirishlarni o'quvchilar, talabalar ongiga yetkazish va shakllantirish har bir mutaxassis o'qituvchilardan yuqori ma'suliyat talab qiladi.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Har bir oquvchi va talaba dars davomida olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo'ladi. Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi.

Bu vazifalarni bajarishda geografik ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda. Bularning barchasi geografiya fani o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o'z

ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o`qituvchilarning tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o`z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanining umumiy ta'rifi mavzusida geografik mehnat taqsimoti tushunchasi tarmoqlar misolida har bir tarmoq xususiyatlari va joylashishi chuqur o`rganiladi. Ayniqsa tarmoqlarning iqtisodiy kartalari va darsliklardan xilma-xil mazmundagi kartalar hududiy ixtisoslashishi va tarmoqlar geografiyasidagi iqtisodiy aloqalarni bilib olishda katta ahamiyatga ega.

**BMI ning o`rganilganlik darajasi** O`zbekistonda geografiya o`qitish metodikasi fani bo`yicha O.Mo`minov, M.Nabixonov, P.G`ulomov, P. Musayev, R.Qurboniyozov, A.Hayitov, O`.Safarov, Q. Bahromov kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarda ilmiy g`oyalarni ko`rish mumkin. Ayniqsa bu olimlar zamonaviy geografiya fani oldida turgan dolzarb muamolar, geografiya fanini o`qitilishida qo`llaniladigan pedagogik texnologiyalar, fanni ishlab chiqarish bilan bog`liq jihatlarini o`rganishga asosiy etibor qaratganlar.

**BMI ning maqsadi.** Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda umumta'lim maktablarining 8- sinflari O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanida berilgan "Farg`ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o`qitishda geografiya ta'limida qo`llaniladigan metodlardan foydalanilgan holda yozishga harakat qildim. Bundan tashqari maktab amaliyoti davomida o`zlashtirilgan ko`nikma va tajribalarimga tayangan holda mavzuni o`qitishda qo`llaniladigan ko`rgazmali qurollar, kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo`llarini yoritishga harakat qildim. Mavzuni o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to`plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qildim.

**BMI ning vazifasi.** "Farg`ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o`rganishning asosiy jihati Andijon, Namangan va Farg`ona viloyatlari geografiyasi hisoblanadi. "Farg`ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o`rganishda eng asosiy ob'yekti viloyatning geografik o`rni, aholisi va xo`jalik tarmoqlari yetakchi o`rin egallaydi. Bundan

tashqari viloyatning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari manbalari bir - biri bilan chambarchas bog`liqdir. Bu manbalar darslikdagi manbalarni to`ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o`taydi. Umumiy holda aytadigan bo`lsak, umumta'lim maktablarining 8-sinfida o`tiladigan "Farg`ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o`rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko`nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g`oyalarini jamlagan holda o`rganildi. Chunki bilim ijtimoiy mehnat va tafakkur muhim bo`lib, mavzuni yoritishda mavjud ma'lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi. Ko`nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig`indisidir. Bu iqtidor va ko`nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o`qitiladigan "Farg`ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o`rganishda o`quvchilar o`z fikr va mulohazalarini amalda bajarishga intiladilar. Farg`ona iqtisodiy rayonining xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan aloqalari haqidagi bilim va ko`nikmalarni o`z ichiga oladi. Ayniqsa o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to`ldirish orqali o`quvchilarda geografik ko`nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

**BMI ning ilmiyligi.** Farg`ona iqtisodiy rayonini o`rganishda rivojlanayotgan viloyatlarning xo`jaligidagi rivojlanish sabablarini, iqtisodiy, madaniy yutuqlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografik mehnat taqsimoti mazmuniga o`z ta'sirini ko`rsatmoqda.

Bu borada buyuk olim N.N.Baranskiy iqtisodiy geografik tadqiqotlarda geografik mehnat taqsimoti tushunchasini ahamiyatiga to`xtalib, bu tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy geografiya uchun ahamiyati nihoyatda katta ekanligini, uning iqtisodiy nazariyasi boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog`lovchi vosita ekanligini doim uqtirib kelgan. Bu tushuncha mavzuni o`rganishning deyarli barcha mavzularida viloyatlar, shaharlar, rayonlar, o`lkalar xo`jaligini o`rganishda xo`jalik tarmoqlari o`rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishimni yozishda menga yaqindan yordam bergan Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasida professor-o`qituvchilariga o`zimni minnatdorchiligimni bildiraman. Bitiruv ishini kelgusida umumta'lim maktablarining 8-sinfida O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan o`tiladigan mavzularida foydalanishga harakat qilaman.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** BMI da kirish, 2 ta bob, 6 ta bo`lim, xulosa va adabiyotlar ro`yxatini o`z ichiga qamrab oladi.

**Ishning kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob`yekti va predmeti, ilmiy yangiligi o`z aksini topgan.

**BMI ning birinchi bobi** Farg`ona iqtisodiy rayoniining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy baho berilgan bo`lib, iqtisodiy rayon mamlakat hududiy mehnat taqsimotida o`zining qishloq xo`jaligi, xususan paxta va pilla, meva va uzum, sanoatida esa avtomobilsozlik, to`qimachilik, kimyo va neft kimyo sanoati bilan ajralib turadi. Farg`ona iqtisodiy rayoni O`zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizini, sanoatini 23,9 foiz, qishloq xo`jalik mahsulotining 26,1 foizini ta`minlaydi, pullik xizmatlarda uning ulushi 24,6 foiz, chakana savdoda 22,8 foiz, tashqi savdo aylanmasida – 16,0 foiz. Shuningdek, bu yerda neft, qurilish va farmatsevtika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Mintaqa qator o`zining betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u respublikamizning sarqida tog`l hududida joylashgan, mintaqada urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi yuqori, demografik rivojlanish, ya`ni aholi tabiiy ko`payishi o`rta darajada.

Uncha katta maydonga ega bo`lmagan Andijon viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida, milliy iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o`ynaydi. U mamlakatimizning 6,6 foiz yalpi ichki mahsulotini, 13,6 foiz sanoat, 9,9 foiz qishloq xo`jalik mahsulotini ta`minlaydi. Viloyatning xo`jaligi industrial-agrar yo`nalishga ega bo`lib, u eng avvalo, mashinasozlik (avtomobilsozlik), to`qimachilik sanoat tarmoqlariga, paxta va pilla yetishtirishga ixtisoslashgan.

Mamlakat mehnat taqsimotida Namangan viloyati, eng avvalo, dehqonchilik (paxta, pilla, meva, uzum yetishtirish), yengil va oziq-ovqat sanoatiga

ixtisoslashgan. U respublika yalpi hududiy mahsulotining 4,2, sanoat mahsulotining 2,7, qishloq xo'jaligi mahsulotining 7,9, chakana savdo hajmining 6,1 foizini beradi.

Farg'ona viloyati mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 6,7 foizini, sanoat ishlab chiqarishini 7,6 foiz, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ham 8,3 foiz ta'minlaydi. Viloyatga O'zbekiston eksportining 2,7 va importning 4,5 foizi to'g'ri keladi (2015 y.).

**BMI ning ikkinchi bobi** Farg'ona iqtisodiy rayoni mavzusini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan bo'lib, Farg'ona iqtisodiy rayonini mavzusining maktab geografiyasi ta'limida tutgan o'rni, Farg'ona iqtisodiy rayonini mavzusini o'qitishning maqsadi, vazifalari va ta'lim- tarbiyaviy ahamiyati, Farg'ona iqtisodiy rayoni mavzusini o'qitishda qo'llanadigan metodlar bayon etilgan. Har bir iqtisodiy rayonni o'quvchilarga o'qitish, o'rgatish qanchalik muhim bo'lsa, bu mavzuni o'rganish ham shunchalik katta aqamiyatga ega. Mavzuning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchi o'quvchilarda mamlakat, uning alohida viloyatlari uning sarxadlari tabiiy boyliklari, aholisi, xo'jaligi va yirik shaharlari haqidagi tushunchalarni ixtisoslashish tarmoqlarini shakllantiradi;

Ikkinchi o'quvchilarda Farg'ona iqtisodiy rayonining boshqa iqtisodiy rayonlar orasida tutgan o'rni, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli haqida o'quvchilarga ma'lumot berilib, ularning bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Uchinchi o'quvchilarga yozuvsiz karta bilan ishlashni, atlasdan ko'chirishni o'rgatish, ularning rassomchilik faoliyatlarini shakllantirish va hozirgi kunda iqtisodiy rayon haqidagi bilimlarini ma'lum bir tizimga solishdan iborat.

To'rtinchi o'quvchilarda darsni tashkil etishda muhim nuqtalar, xususan qanday geografik nomlar, yangi terminlar o'rganilishini aniqlash aloqida ahamiyatga ega.

Beshinchi o'quvchilarda oldin o'rganilgan iqtisodiy rayon haqidagi bilimlardan qaysilari qaytariladi, qaysilariga suyanib bilim beriladi, boshqa fanlardan berilgan tushunchalardan qaysilari esaga olinadi, ya'ni fanlararo aloqaga ham e'tibor berishiga ham boqliq. Darsda bu mavzuning o'qitish ahamiyati o'qituvchi o'z

fanining bilimdoni va o'z ustida tinmay ishlashi ilgor tajribalari bilan bevosita boqliq.

**Xulosa qismida-** Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, maktab geografiya ta'limida o`qitiladigan barcha mavzularning o`ziga xos jihatlari va ahamiyati bor. Maktablarda boshlang'ich geografiya, tabiiy geografiya ta'limidan so`ng iqtisodiy ijtimoiy geografiyaning tarmoqlari bo`yicha bilim beriladi. O`qitiladigan mavzular darsdan darsga o`tgan sari murakkablashib va dolzarblashib boradi. Hozirgi zamon taraqqiyoti, fani rivojlanib borayotgan bir paytda maktablarda o`ziga xos ta'lim jarayonini tashkil etish, o`quvchining bilim olishi uchun turli vositalardan foydalanishga o`rgatish muhim masaladir.

O`quvchining erkin fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash va uni ma'lum bir mutaxassisliklar bo`yicha yo`naltirishda geografiya fanining hissasi katta. Shu bilan birga bu fanni zamonga mos ravishda rivojlantirish, fan texnika taraqqiyoti yutuqlaridan bahramand etish har bir geografning vazifasidir. Maktablarda o`qitiladigan har bir mavzularning maqsadi va mazmunini ochib berishga, noan'anaviy dars turlarini joriy etishga erishmoq zarur.

## ***I.BOB. FARG`ONA IQTISODIY RAYONINING TABIIY SHAROITI VA TABIIY RESURSLARIGA IQTISODIY BAHO***

### **1.1.Andijon viloyatining geografik o`rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari**

Iqtisodiy rayon ma'muriy jihatdan Farg'ona vodiysi tabiiy geografik rayonining O'zbekiston qismini o'z ichiga oladi. Unga Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari kirib, jami 18,5 ming kv. km. yoki respublika umumiy maydonining 4,1 foizini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, rayon hududi ancha kichik, u Samarqand yoki Toshkent viloyatlaridan biroz kattaroq, Jizzax yoki Surxondaryo viloyatlariga sal yaqinroq. Bu yerda, 2014 yil ma'lumotlariga ko'ra, 8284,0 ming kishi aholi yashagan (respublikaga nisbatan 28,5 foiz). Farg'ona iqtisodiy rayoni O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizini, sanoatini 23,9 foiz, qishloq xo'jalik mahsulotining 26,1 foizini ta'minlaydi, pullik xizmatlarda uning ulushi 24,6 foiz, chakana savdoda 22,8 foiz, tashqi savdo aylanmasida – 16,0 foiz. Rayon mamlakatimiz hududiy mehnat taqsimotida qishloq xo'jaligi, xususan paxta va pilla, meva va uzum, sanoatida esa avtomobilsozlik, to'qimachilik, kimyo va neft kimyosiga ixtisoslashgan. Geografik o'rni, siyosiy geografik vaziyati transchegaraviy bo'lganligi sababli bu yerda ichki transport infratuzilmasi ancha rivojlangan. Mintaqaning aloqa yo'llari Tojikiston Respublikasining Sug'd, Qirg'iziston Respublikasining Botken, Jalolobod va O'sh viloyatlari bilan bog'langan.

Ichki tarkibda hududi bo'yicha eng kattasi Namangan viloyati, iqtisodiy salohiyat Andijonda, demografik salohiyat Farg'ona viloyatida yuqori. Ayni vaqtda, nafaqat iqtisodiy rayonda, balki respublikamizda ham Namangan viloyati nisbatan sust rivojlangan.

**Andijon viloyati.** O'zbekiston Respublikasining maydoni eng kichik, biroq aholisi eng ko'p bo'lgan mintaqalaridan biri-Andijon viloyati 1941 yilda tashkil topgan. O'tgan asrning 60-yillarida u qo'shni Namangan viloyati bilan birlashib, Andijon viloyati nomida mavjud bo'lgan va so'ngra yana avvalgi rasmiy maqomi va hududi qayta tiklangan (1-rasm).


# ANDIJON VILOYATI IQTISODIY KARTA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
ANDIJON VILOYATINING SALMOG'I  
(foizda, 2011 y.)



Sanoatning asosiy tarmoqlari:  
elektrenergetika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, avtomobilsozlik, yengil, oziq-ovqat  
Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari:  
paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, ipakchilik

SHAHAR VA QISHLOQ  
AHOLISINING SONI  
(foizda, 2012 y.)




### QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISOSLASHUVI

- Sug'orma dehqonchilik zonasi**
- Shahar atrofi xo'jaligi: sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va sut-go'sht chorvachiligi
  - Paxtachilik, sabzavotchilik, mevachilik, sut-go'sht chorvachiligi, ipakchilik
- Cho'l-yaylov zonasi**
- Cho'l-yaylov chorvachiligi
- Tog'-yaylov zonasi**
- Tog'-yaylov chorvachiligi (go'sht-jun qo'ychiligi, qo'sht-sut chorvachiligi), daryo vodiylarida bog'lar va uzumzorlar

### KENG TARQALGAN RAYONLAR

- paxtachilik
- bag'lar
- uzumzorlar
- anor va anjirzorlar
- qo'y va echkilarni urchitish
- asalarichilik
- sabzavot va kartoshka
- poliz ekinlari
- makkajo'xori
- sholi
- parrandachilik

### SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI YALPI MAHSULOTLARI HAJMI (2011 y.)



### ISHLOV BERUVCHI SANOAT (2010 y.)

- Yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoat punktlari
- Juda yirik
  - Yirik
  - O'rta
  - Mayda

### Sanoat tarmoqlari

- Elektrenergetika
- Mashinasozlik va metallni qayta ishlash
- Avtomobilsozlik
- Kimyo
- Qurilish materiallari
- Yengil
- Oziq-ovqat
- Boshqa tarmoqlar

### UNDIRUVCHI SANOAT

- Neft
- Neft va tabiiy gaz
- Mineral suv buloqlari
- Andijon Konlarning nomlari
- Gidroelektrstansiyalar
- Elektr uzatkich liniyalari
- Gaz quvurlari
- Neft quvurlari

Mashtab 1:700 000

1-rasm. Andijon viloyatining iqtisodiy kartasi.

Maydoni 4,30 ming kv. km va bu nuqtai nazardan u mamlakatimizda Sirdaryo viloyatidan (4,28 ming kv. km) oldinda turadi, xolos. Atigi 0,96 foiz respublika maydonini egallagan ushbu hududda 2805,2 ming kishi yoki mamlakat jami aholisining 9,2 foizi yashaydi (aholi soni bo'yicha Farg'ona iqtisodiy rayonida ikkinchi, respublikamizda to'rtinchi o'rinda turadi).

Andijon viloyati hududi va aholisi nisbiy ko'rsatkichlarini taqqoslashning o'zi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining asosiy xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Bunda, eng avvalo, viloyat demografik sig'iminin juda yuqoriligi, aholining o'ta zich joylashuvi, yer resurslarining tanqisligi ko'zga tashlanadi. Aynan ana shunday vaziyat uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategik yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Ma'muriy jihatdan Andijon viloyati viloyatga bo'sunuvchi 3 ta shahar, 14 qishloq tumanlari, 9 ta tumanga bo'sunuvchi shaharlar hamda 78 ta shaharcha va 90 ta qishloq fuqarolar yig'inlaridan iborat. Qishloq aholi punktlari 456 ta.

Viloyat geografiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu yerda qishloq tumanlari zich va maydoni deyarli bir tekis taqsimlangan. Spunchalik miqdorda, ya'ni 14 ta qishloq tumanlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ham mavjud, ammo ularning hududi Andijon viloyatidan bir necha marta katta. Viloyatda har bir tumanga atigi 0,31 ming kv. km.dan maydon to'g'ri keladi - mamlakatimiz bo'yicha eng oz ko'rsatkich hisoblanadi. Bu yerda "geografiylik koeffitsiyenti" 2,61 ga teng. Boshqacha qilib aytganda, eng katta tuman - Qo'rg'ontepa eng kichik tuman - Buloqboshidan 2,6 marta katta, vaholanki, bunday hududiy tafovutlar boshqa mintaqalarda, hatto qo'shni Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham sezilarli darajada.

Uncha katta maydonga ega bo'lmagan viloyat respublika hududiy mehnat taqsimotida, milliy iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. U mamlakatimizning 6,6 foiz yalpi ichki mahsulotini, 13,6 foiz sanoat va 9,9 foiz qishloq xo'jalik mahsulotini ta'minlaydi. Viloyatning xo'jaligi industrial-agrar

yo'nalishga ega bo'lib, u, eng avvalo, mashinasozlik (avtomobilsozlik), to'qimachilik sanoat tarmoqlariga, paxta va pilla yetishtirishga ixtisoslashgan.

Viloyat hududi Farg'ona iqtisodiy rayoni va O'zbekiston Respublikasining chekka sharqida joylashgan. U Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod hamda O'sh viloyatlari bilan chegaradosh. Respublikamiz doirasida esa Andijon viloyati janubi-g'arbda Farg'ona va shimoli-g'arbda Namangan viloyatlari bilan qo'shni.

Yer usti tuzilishi balandlik, adir va tekisliklardan iborat, eng baland nuqtalari janub va chekka sharqda – Xo'jaobod va Qo'rg'ontepa tumanlarida joylashgan (1350-1550 m.). Andijon guruh rayonlarini viloyatning janubi-sharqda joylashgan hududlaridan 800-900 metr balandlikdagi adir zonasi ajratib turadi. Shu adirning (Teshiktosh adirlari) janubiy qismida G'arbiy Polvontosh, Sharqiy Xartum, Gumxona, Janubiy Olamushuk kabi uncha katta bo'lmagan neft konlari mavjud. Neft-gaz konlari Shahrixon, Xo'jaobod, Polvontosh; Sultonobodda g'isht xom ashyosi aniqlangan. Biroq ta'kidlash lozimki, viloyatda boshqa qazilma boyliklar deyarli yo'q darajada. Faqat qurilish materiallari sanoati-g'isht ishlab chiqarish uchun xom-ashyolar bor, xolos. Viloyatning g'arbiy va shimoliy-g'arbiy, nisbatan yangi o'zlashtirilayotgan hududlarining balandligi 400-420 m. Bu ikki orografik shakllar o'rtasida qishloq xo'jaligi va aholi joylashuvi uchun nihoyatda qulay bo'lgan pasttekislik bor.

Iqlimi kontinental; yillik yog'in-sochin miqdori vodiyning boshqa qismlariga qaraganda ko'proq (500 mm. atrofida). Asosiy gidrografik elementlari Qoradaryo va uning o'ng irmoqlari - Moylisuv va Tentaksoydan iborat. Ulardan tashqari, viloyat xo'jaligi va aholisini hududiy tashkil etishda Oqbo'ra hamda Aravansoy daryolarining ham ahamiyati bor. Chekka janubi-sharqda Qirg'iziston hududiga tutash joyda Andijon suv ombori va 100 ming kVt quvvatga ega bo'lgan Andijon GES qurilgan. Viloyat hududida Janubiy Andijon, Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona kanallari mavjud.

Shunday qilib, Andijon viloyatida qazilma boyliklar oz, suv zahiralari esa birmuncha ko'p. Aynan ana shu agroiklimiy imkoniyatlar bu yerda qadimdan sug'orma dehqonchilik va shu asosda xo'jalikning boshqa tarmoqlarini

rivojlantirishga sabab bo'lgan. Sug'orma dehqonchilikda yuqoridagi asosiy irrigatsiya infratuzilmalaridan tashqari nisbatan kichikroq suv omborlari, kanal va ariqlar ham katta ahamiyatga ega. Ular jumlasiga Asaka, Otchopar suv omborlari, Norin chapqirg'oq, Ulug'nor, Ozod, Ko'tarma, Xalqobod, Kishkish, Xo'jaqatortol, Yangiariq kabi kanal va ariqlar kiradi. Qoradaryodan boshlangan Shahrixonsoy va Andijonsoy shu nomli shahar va tumanlarga o'z suvlarini yetkazadi.

Ko'rinib turibdiki, viloyatda sun'iy va tabiiy gidrografik shaxobchalar juda ko'p va zich. Aksariyat daryolar transchegaraviy xususiyatga ega bo'lib, ularning to'yinish va boshlanishi qo'shni Qirg'iziston hududida joylashgan. Eng katta Andijon suv omborining asosiy qismi ham shu mamlakat doirasiga to'g'ri keladi. Shu bois, suv muammosi, suv masalasini xalqaro tartib-qoidalar, me'yorlar asosida hal qilish muhim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega.

Andijon viloyatining eng muhim geografik jihati bu yerda aholining zich joylashuvidir. Aholi soni keyingi asr mobaynida 1,5 marta ko'paygan. Bu esa aholi zichligining yanada ko'tarilishiga olib kelgan. Hozirgi vaqtda qishloq tumanlarining aholisi Bo'z tumanidan 64,0 ming kishidan Shahrixon tumanidagi 265,1 ming kishigacha farq qiladi (tafovut 4,14 ga barobar). Shahrixon tumani o'zining demografik salohiyati bo'yicha mamlakatimizning bu boradagi eng yirik hududlari qatoriga kiradi.

Aholi dinamikasi nuqtai nazaridan ko'rilyotgan davrda Shahrixon, Asaka, Bo'z, Qo'rg'ontepa tumanlarida o'sish ancha yuqori bo'lgan. Shuningdek, bu o'sish Marhamat tumanida ham yuqoriroq. Ayni vaqtda demografik o'sish ko'rsatkichi Baliqchi, Paxtaobod va Oltinko'l tumanlarida birmuncha past. Viloyat bo'yicha aholi zichligi 1 kv kmga 652 kishi - bu nafaqat O'zbekistonda, balki butun MDH mamlakatlari bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Asaka tumani esa, Asaka shahri tumanga bo'ysinuvchi maqomga tushirilganidan so'ng (2010 y.) O'zbekistonda aholi zichligi bo'yicha eng oldingi o'ringa chiqib oldi - 1 kv.km.ga 1113 kishi. Shaxrixonda zichlik 914 kishi - bu ham respublikamizda eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Shu bilan birga zichlik Oltinko'l, Buloqboshi, Izboskan tumanlarida ham yuqori, faqat yangi o'zlashtirilgan cho'l hududlarda -

Ulug'nor va Bo'zda u nisbatan past. Biroq ularning ko'rsatkichlari ham mamlakat o'rtacha darajasidan 2-3 marta ziyod.

Ko'rinib turibdiki, viloyat hududida antropogen bosim, demografik yuk nihoyatda yuqori. Bunday demografik vaziyat qator muammolarni, jumladan, milliy xalq an'alaridan kelib chiqqan holda uy-joy bilan ta'minlanish, fermer xo'jaliklarini optimallashtirish kabi sohalarda muayyan qiyinchiliklarga olib keladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, viloyatda aholining o'sish sur'ati mamlakatimizning ba'zi mintaqalari, masalan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax kabi viloyatlariga qaraganda, so'nggi yillarda biroz past. Shunga qaramasdan viloyat aholisining soni bir yilda o'rtacha 60 ming kishidanga ortib bormoqda. Boshqa hududlarda bo'lganidek, bu yerda ham aholi sonining o'sishi to'liq tabiiy ko'payish asosida bo'lmoqda. 2013 yilda har 1000 kishiga nisbatan tug'ilish 23,0, o'lim 5,1 promilleni, tabiiy ko'payish 17,9 promilla yoki 1,79 foizni tashkil qilgan. Bu borada eng so'nggi yillarda tug'ilish va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining yuqorilab borishi kuzatilmoqda. Tug'ilishning umumiy ko'rsatkichi 1995 yilda Andijon tumanida 31,0, 2000 yilda 20,1 promille bo'lgan holda, u 2005 yilda 20,1 va 2010 yilda 23,5 promillega, yoki Qo'rg'ontepa tumanida ular yuqoridagilarga mos holda 31,4; 20,9; 20,7 va 24,3 promillega teng bo'lgan. Xuddi shunday jarayonni yoki tug'ilish dinamikasidagi o'zgarishlarni viloyatning boshqa tumanlarida ham kuzatish mumkin.

Keyingi yillarda tabiiy ko'payishning eng yuqori darajasi Ulug'nor tumanida ko'zga tashlanadi (21,2 promilla). Yuqorida ta'kidlanganidek, tashqi migratsiya mintaqa aholisining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. 1997 yilda migratsiya qoldig'i viloyat bo'yicha minus 970, 1998 yilda 960 kishiga teng bo'lgan holda, shu yillarda qishloq joylarda u biroz ko'proq, minus 1690 va 1555 kishi bo'lgan.

2009 yilda amalga oshirilgan urbanistik islohotlar tufayli viloyat shaharchalari 5 tadan 78 taga ko'paydi. Hozirgi kunda jami 11 shahar va 83 ta shaharchalarda jami aholining 52,7 foizi yashaydi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Andijon Namangan va Farg'ona viloyatlaridan keyingi 3-o'ringa chiqib oldi. Taqqoslash uchun: 2008

yilda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi 29,2 foiz yoki respublika darajasidan 6,6 punktga past bo'lgan, endi esa viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori turadi.

Tashkil etilgan 78 ta yangi shaharchalarning 18 tasi birgina Andijon tumaniga to'g'ri keladi; 11 ta shaharcha Oltinko'lda, 9 ta Marhamatda, Jalaquduq va Xo'jaobodda 6 tadan paydo bo'lgan; bittadan agrosaharchalar Ulug'nor va Qo'rg'ontepa tumanlarida tashkil etilgan.

Andijon viloyati ko'p qishloqli emas, katta qishloqlarga boy hudud hisoblanadi. Qishloqlar soni bo'yicha u respublikamizda oxirgi o'rinlarda (faqat Sirdaryo va Namangan viloyatlaridan oldinda), vaholanki, aholi soni bo'yicha Andijon 4-o'rinda turadi. O'rtacha har bir qishloq aholi punktiga 2008 yilda 3236 kishi, 2013 yilda 2860 kishi to'g'ri kelgan. Andijon viloyatida 32 ta eng yirik, ya'ni har birida 5000 va undan ortiq aholi joylashgan qishloqlar mavjud.

Viloyat markazi – Andijon negizida yirik shahar aglomeratsiyasi shakllanmoqda. Uning “yo'ldoshlari” orasida, eng avvalo, o'zbek avtomobilsozlari shahri Asaka hamda Shahrixon, Marhamat, Poytug' kabilar ajralib turadi.

Mintaqa shaharlari turli funksiyalarni bajaradi: Andijon - ko'p funksiyali, iqtisodiy, siyosiy, madaniyat va fan markazi; Asaka va Shahrixon - sanoat markazlari, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Oxunboboyev, Paxtaobod, Poytug', Ulug'nor, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Oqoltin, Oltinko'l, Kuyganyor - agrosanoat shahar va shaharchalar, tuman ma'muriy markazlari, Qorasuv, Xonobod - transport va savdo markazlari. Boshqa shahar joylarning aksariyati agrosaharchalar hisoblanib, ularning ayrimlarida hozircha shahar paydo qiluvchi tarmoqlar sust rivojlangan. Andijon shahrida 404 ming, Shahrixonda – 71 ming, Xonobodda 40 ming aholi bor, qolgan shaharlar aholisi bundan kam.

Andijon viloyatining ikkinchi muhim boyligi - bu uning mehnat resurslaridir (birinchisi - agroiqlimiy resurslar). 1 yanvar 2014 yil ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 1631 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 1279 va iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi 1211 ming kishini tashkil qiladi. Jami band bo'lganlarning 71,4 foizi moddiy ishlab chiqarishda, qolganlari nomoddiy sohalarga to'g'ri keladi. Sanoatda 11,6 foiz, qishloq va o'rmon

xo'jaligida 37,5 foiz, transport va aloqada 2,5 foiz, qurilishda 5,1 foiz, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy texnika ta'minotida 8,2 foiz band.

Andijon viloyati xo'jaligi, avval e'tirof etilganidek, industrial – agrar yo'nalishga ega. Bu turdagi mintaqalar mamlakatimiz iqtisodiy makonida uncha ko'p emas. Viloyat yalpi hududiy mahsulotining 18,1 foizini sanoat, 28,7 foizini qishloq xo'jaligi ta'minlaydi; transport va aloqaning ulushi 7,1 foiz, savdo va umumiy ovqatlanishniki 10,1 foiz, qurilishniki – 5,7 foiz va h.k. (2012 y.).

Mustaqillik yillarida Andijon viloyati sanoati tez rivojlanib bordi va respublika iqtisodiy makonida o'ziga xos o'sish qutbiga aylandi. Bu, eng avvalo, viloyatning Asaka shahrida joylashgan avvalgi "UzDEU avto" – hozirgi "GM Ozbekiston" qo'shma korxonasi asosida ro'y berdi. Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishida bu yerdagi yirik tog'-metallurgiya kombinatining ahamiyati qanday bo'lsa, Andijon viloyatida ham ushbu avtomobilsozlik zavodi mavqei shunday. Ularsiz mazkur viloyatlar iqtisodiyoti butunlay boshqacha ko'rinishda bo'ladi.

Asakadagi zavod qurilishi 1994 yilda boshlanib, undan 1996 yilda birinchi o'zbek avtomobili ishlab chiqarilgan. Umumiy loyiha quvvati bir yilda 200 ming dona avtomobil. Zavod konveyeridan turli rusumdagi zamonaviy avtomobillar: "Tiko", "Neksiya 1 va 2", "Matiz", "Damas", "Djentra", "Lasetti"lar jahon bozorida, xususan MDH mamlakatlarida yaxshi mavqelarni zabt etgan. Hozirgi vaqtda aytish mumkinki, respublikamizda Andijon deganda Asaka, Asaka deganda yengil avtomobillar tushuniladi.

Shunday qilib, mashinasozlik, aniqrog'i avtomobilsozlik viloyat sanoati va umuman mintaqa iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Uning hissasiga jami yaratilgan sanoat mahsulotining 77,0 foizi to'g'ri keladi. yengil sanoat mahsulotining qiymati 4,7 foiz, oziq-ovqat – 4,8 foiz. Sanoat tarmoqlari doirasida ishlab chiqarish hajmi va asosiy sanoat korxonalarini turlicha. Viloyatda jami yirik sanoat korxonalarini 51 ta. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Andijon viloyati sanoat korxonalarida ishlab chiqarish mujassamlashuvi juda yuqori; bu yerda, boshqa qator mintaqalarga qaraganda, sanoat korxonalarining soni oz, lekin "oz bo'lsada - soz", aksariyati katta korxonalaridir.

Viloyatda taxminan 500-600 mln. kVt soat elektr energiya ishlab chiqariladi va uni 100 ming kVt quvvatiga ega bo'lgan Andijon GES beradi. Kimyo va neft-kimyo sanoatida mahalliy konlardan oz miqdorda (90-100 ming t atrofida) neft qazib olinadi va u Farg'ona neftni qayta ishlash zavodiga jo'natiladi. Ushbu tarmoqda "Uz Kora Ko" va "Uz Dongju Peint Ko" qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, Asaka avtomobil zavodi nafaqat viloyat, balki butun Farg'ona vodiysi sanoatining rivojlanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Zavod ehtiyoj qismlari mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ko'proq tayyorlash maqsadida qo'shni viloyatlarda ham unga turdosh yoki yordamchi sanoat korxonalari barpo etilgan (masalan, Namangan, Quvasoy va boshqa shaharlarda).


Qurilish materiallari sanoati sust rivojlangan, u asosan g'isht ishlab chiqaruvchi zavodlardan iborat. Ilgari katta mavqega ega bo'lgan yengil sanoatda ham o'sish sur'atlari uncha katta emas. To'g'ri, xorijiy sarmoyalar hisobidan qator to'qimachilik korxonalari barpo etilgan (ularning eng yirigi Shahrixondagi "Anteks" QK sanalanadi). Biroq, bu sur'atlar mavjud xom-ashyo, mehnat resurslari va ehtiyoj nuqtai nazaridan qoniqarli emas. Sobiq Ittifoq davrida qurilgan yirik Andijon to'qimachilik kombinati hozirgi kunda depressiv holatda.

Paxta tozalash zavodlari barcha qishloq tumanlarida joylashgan. Ular bir yilda ob-havo, paxta hosiliga qarab 100-102 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqaradi. Xuddi shunday sharoitda o'rtacha 12-15 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i olinadi (Andijon va Asaka shaharlari). Oziq-ovqat mahsulotlaridan 2012 yilda 13,2 ming tonna o'simlik yog'i (2008 yilda -20,5 ming t), 32905 ming shartli banka meva va sabzavot konservalari, 38,3 ming t go'sht va go'sht mahsulotlari, 56,6 ming t sut va sut mahsulotlari, 100,3 ming t un olingan. Omuxta yem ishlab chiqarish 54,0 ming tonnani tashkil qilgan.

Andijon viloyatida nafaqat sanoat, qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Buni viloyat o'zlashtirilgan yerlarning deyarli qolmaganligi ham isbotlab beradi. Andijon viloyati umumiy yer maydoni 430,3 ming gektar, shundan qishloq

xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 61,1 % - bu juda yuqori ko'rsatkich. Bunday yerlar hissasi faqat Ulug'nor tumanida biroz kichikroq.

Qishloq xo'jaligining intensivligini bizning sharoitimizda sug'oriladigan yerlarning mavjudligi belgilab beradi. Alohida ta'kidlash lozimki, viloyatda bu ko'rsatkich nihoyatda yuqori - sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligida foydalaniladigan jami yerlarga nisbatan ulushi 91,1 %. Baliqchi, Bo'z, Izboskan, Oltinko'l, Paxtaobod tumanlarida ular 100 foizni tashkil qiladi. 2013 yilda viloyatda jami ekin maydonlari 256,2 ming gektar bo'lgan. Shundan donli ekinlar 93,9 ming ga maydonda yetishtirilgan. Yalpi hosil 646 ming t (2000 y.-580 ming t) yoki respublika g'allasining 8,6 foiziga barobar. Donli ekinlar tarkibida bug'doy yetakchi: 80 ming ga, yalpi hosil 568 ming t, hosildorlik 70,8 s/ga. Boshqa texnika va moyli ekinlardan kungaboqarga katta e'tibor berilmoqda. U 2012 yilda 3,2 ming gektarga ekilgan. Kungaboqar asosan yog' olish maqsadida yetishtiriladi. Shu maqsadda yer yong'oq ham ekiladi.



**2-rasm. Andijon viloyatining ekin maydoni (jamiga nisbatan foizda).**

Viloyatda kartoshka yetishtirish ham katta ahamiyatga ega. Keyindi yilda u 5,9 ming gektarga ekilib, 201 ming tonnaga yaqin hosil olingan. Sabzavot 21,0 ming gektarni egallagan, yalpi hosili 1077 ming tonna. 2012 yilda yem-hashakka ajratilgan yer maydoni 12,5 ming gektarga, uning yarmidan ko'prog'i silos uchun

ekiladigan makkajo'xori bilan band. Bog'dorchilik maydoni 29,0 ming gektarni tashkil qilgan; uzum 4,2 ming gektarda yetishtirilgan; yalpi hosil, mos holda, 439 va 52 ming tonna (2-rasm).

Chorvachilik mahsulotlaridan 2012 yilda tirik vaznda go'sht 105 ming t, sut 655 ming t, tuxum 276 mln. dona, jun 2128 tonna, pilla 3303 tonna olingan. Yirik shoxli qoramollar soni 863 ming bosh, qo'y va echkilar 1176 ming bosh. Taqqoslash uchun: 2000 yilda 2700 tonna atrofida pilla tayyorlangan, yirik shoxli qoramollar 440 ming bosh, qo'y va echkilar 500 ming boshga yaqin bo'lgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda Andijon, Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Paxtaobod, Izboskan tumanlari oldinda (7,0-8,8 %). Ulug'nor, Xo'jaobod, Bo'z va Buloqboshi tumanlarining ulushi esa pastroq. Yuqorida ta'kidlanganidek, viloyatda fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi va rivojlanishi o'ziga xos mintaqaviy xususiyat kasb etadi. 2013 yilda bu yerda jami 7175 ta fermer xo'jaliklari bo'lib, ularga 256 ming gektar yer birlashtirilgan; ishlaydigan xodimlar soni 127,2 kishi.

Aholi zich, aholi punktlari katta bo'lgan Andijon viloyatida ijtimoiy sohalar rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, mavjud mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, aholi bandligini oshirish orqali uning turmush sharoitlarini yaxshilash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan sanaladi.

Odatda, aholining sifat jihatidan rivojlanishi, barkamol darajada shakllanishi uning har tomonlama sog'lom, bilimli bo'lishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlariga alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi. Viloyatda tibbiyot muassasalarining umumiy soni 117 ta bo'lib, ularning yarmidan ko'pi byudjet tizimida faoliyat ko'rsatadi. Har 10000 kishiga 42,9 ta bemor o'rinlari to'g'ri keladi. Ambulatoriya - poliklinikalar soni 559 ta, vrachlar har 10000 kishiga 22,7, o'rta meditsina xodimlari 90,6 ta. Bu raqamlar mintaqa sog'liqni saqlash sohalarining yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Viloyatda doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari 455 ta, umumta'lim maktablari 742 ta bo'lib, ularda o'quvchilar soni 2012-2013 o'quv yilida 386 ming yoki har bir maktabda o'rtacha 520 kishidanga to'g'ri kelgan. Akademik litseylar

jami 12 ta, ularning ko'pchiligi Andijon shahrining o'zida joylashgan; talabalar soni 9945 ta. Barcha qishloq tumanlari va shaharlarda kasb-hunar kollejlari mavjud: umumiy soni 117 ta, talabalar – 147,4 ming kishi.

Andijon shahri mamlakatimizda oliy ma'lumotli kadrlar yetkazib berishda muhim mavqega ega. Bu yerda 4 ta oliy o'quv yurti, shu jumladan universitet, tibbiyot instituti bor; Andijon tumanining ma'muriy markazi Kuyganyor shaharchasida Qishloq xo'jaligi (avvalgi paxtachilik) instituti joylashgan. Viloyat oliy o'quv yurtlarida jami 15 mingdan ziyod talaba tahsil oladi.

Aholining yashash sharoiti ko'p jihatdan ijtimoiy infratuzilma shaxobchalarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Bu borada ayniqsa aholining toza ichimlik suvi, gaz va muntazam elektr energiya bilan ta'minlanishi katta mazmun kasb etadi. Andijon viloyatida, 2013 yil yakunlari bo'yicha, aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi 80,4 foiz bo'lgan.

Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, viloyatda jami 46,2 mln tonna yuk, 394,2 mln kishi yo'lovchi tashilgan. Yuk va yo'lovchi tashish aylanmasi oldingi yilga qaraganda ortgan. Tashilgan yukning 60,6 foizini, yo'lovchilarning 52,5 foizini avtomobil transporti amalga oshirgan. Yukning ham, yo'lovchining ham aksariyat qismini xususiy avtomobil egalari bajarishgan. Yuk tashishda, eng avvalo, Andijon shahri, tumanlar orasida esa Andijon hamda Paxtaobod ajralib turadi. Yo'lovchilar tashishda viloyat markazidan tashqari Andijon, Qo'rg'ontepa va Asaka tumanlari oldinda. Tashqi savdo aylanmasi 2008 yilda 2060,5 mln, 2009 yilda 1521,8, 2013 yilda 2889,5 mln AQSH dollariga teng bo'lgan. Eksport tarkibida mashina va uskunalari – 66,1 foiz, importda – 78,6 foiz.

## **1.2. Namangan viloyatining geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari**

Namangan viloyati O'zbekiston Respublikasi Farg'ona vodiysining eng katta hududi hisoblanib, uning maydoni 7,44 ming kv. km. Bu Farg'ona iqtisodiy rayonining 40,2 foizi, mamlakatimizning 1,6 foiz maydoni demakdir. Aholisi 2504,0 ming kishi yoki respublika aholisining 8,2 foizi shu mintaqada yashaydi.

Vodiyda, garchi viloyat o'zining maydonini nisbatan kattaligi bilan ajralib tursada, aholi soni bo'yicha u Farg'ona va Andijon viloyatlaridan orqada turadi. Biroq shunga qaramasdan, respublika miqyosida Namangan viloyati aholisi zich joylashgan hududlar qatoriga kiradi.

Mamlakat mehnat taqsimotida Namangan viloyati, eng avvalo, dehqonchilik (paxta, pilla, meva, uzum yetishtirish), yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan. U respublika yalpi hududiy mahsulotining 4,2, sanoat mahsulotining 2,7, qishloq xo'jaligi mahsulotining 7,9, chakana savdo hajmining 6,1 foizini beradi.

Viloyat hozirgi holatda 18 dekabr 1967 yilda tashkil topgan. Aslida esa u dastavval 06.03.1943 yilda bu maqomga ega bo'lgan, so'ngra, ya'ni 25.01.1960 yilda Namangan va Andijon viloyatlari qo'shilib, alohida bir ma'muriy birlikni tashkil qilgan. Namangan viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi viloyatga bo'ysunuvchi 1 ta shahar, 11 ta qishloq tumani, 7 ta tumanga bo'ysunuvchi shahar va 120 ta shaharchalardan iborat. Shuningdek, bu yerda 99 ta qishloq fuqarolar yig'inlari va 402 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Qishloq tumanlari orasida maydoni bo'yicha Pop va Chust ajralib turadi. Xususan, Pop tumanining maydoni eng katta bo'lib (2,91 ming kv. km), u viloyat umumiy hududining 39,1 foizini egallaydi. Chust tumanining maydoni 0,91 ming kv.km, kichigi esa Norin tumani hisoblanadi. Bu boradagi geografik koeffitsiyent 13,8 ga teng. Demak, viloyat tabiiy-xo'jalik jihatdan ancha katta ichki hududiy tafovutlarga ega.

Namangan viloyati asosan Sirdaryoning o'ng qirg'og'i, Farg'ona vodiysining shimoliy qismini egallaydi. U O'zbekiston Respublikasi hududining sharqiy qismida, Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyatining janubida joylashgan; g'arbda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati bilan, respublikamiz doirasida esa Toshkent viloyati, janubda Farg'ona, janubi-sharqda Andijon viloyatlari bilan chegaradosh.

Viloyat hududining yarmidan ko'prog'i tog' va tog'oldi rayonlaridan tashkil topgan. Bu yerda adir mintaqasi qo'shni viloyatlarga qaraganda keng tarqalgan va u bog'dorchilik, uzumchilik hamda chorvachilik uchun qulay (3-rasm).

# NAMANGAN VILOYATI IQTISODIY KARTA


**Sanoatning asosiy tarmoqlari:**  
elektrenergetika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat  
**Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari:**  
donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik, bog'dor-chilik va uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, ipakchilik



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NAMANGAN VILOYATINING SALMOG'I (foizda, 2011 y.)



## SHAHAR VA QISHLOQ AHOLISINING SONI (foizda, 2012 y.)



### QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISOSLASHUVI

- Sug'orma dehqonchilik zonasi**
- Shahar atrofi xo'jaligi: sabzavotchilik, bog'dor-chilik, sut-go'sht chorvachiligi
  - Paxtachilik, donchilik, ipakchilik, sut-go'sht chorvachiligi, mevachilik
  - Paxtachilik, donchilik, sut-go'sht chorvachiligi, sabzavotchilik va mevachilik
- Cho'l-yaylov zonasi**
- Cho'l-yaylov chorvachiligi
- Tog'-yaylov zonasi**
- Tog'-yaylov chorvachiligi (go'sht-jun qo'ychiligi va go'sht-sut chorvachiligi), daryo vodiylarida bog'lar va uzumzorlar

### KENG TARQALGAN RAYONLAR

- paxtachilik
- uzumzorlar
- anor va anjirzorlar
- sabzavot va kartoshka
- poliz ekinlari
- sholi
- don-dukkaklilar
- o'rmonlar

### RAYONLAR

echkilarni urchitish

### ISHLOV BERUVCHI SANOAT (2010 y.)

Yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoat punktlari

- Yirik
- O'rta
- Mayda

### Sanoat tarmoqlari

- Elektrenergetika
- Rangli metallurgiya
- Mashinasozlik va metallni qayta ishlash
- Kimyo va neft-kimyo
- O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz
- Qurilish materiallari
- Yengil
- Oziq-ovqat
- Boshqa tarmoqlar

### UNDIRUVCHI SANOAT

- Neft
- Neft va tabiiy gaz
- Oltin
- Kumush
- Flyuorit (dala shpati)
- Granit
- Qurilish toshi
- Mineral suv buloqlari
- Oqbuloq Konlarning nomlari

- Gidroelektstantsiya
- Elektr uzatkich liniyalari
- Gaz quvurlari
- Neft quvurlari

### SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI YALPI MAHSULOTLARI HAJMI (2011 y.)

- 1 mm ustun balandligi - 100 mlrd. so'm
- sanoat
- qishloq xo'jaligi

Masshtab 1:800 000

3-rasm. Namangan viloyatining iqtisodiy kartasi.

Shu jihatdan Namangan viloyatining yer fondi ham kattaroq. Biroq, uning eng chekka shimoli-g'arbiy qismi baland tog'liklardan iborat (balandligi 4000 m.gacha yetadi).

Orografik jihatdan viloyatning g'arbiy va shimoliy qismidagi Chotqol, Qurama hamda Farg'ona tizmalari G'arbiy Tyanshan tog' tizmalariga kiradi. Viloyat hududida ba'zi qazilma boyliklari ham mavjud (flyuorit, kumush, oltin, granit neft va b.). Chodoq, Chorkesar, Uyg'ursoy polimetal va qimmatbaho metallar hamda Tergachi, Namangan va Mingbuloq neft konlari shular jumlasidandir. Ammo bu konlarda qazilma boyliklarining zahirasi ko'p emas, binobarin, ular mintaqa iqtisodiyotiga kuchli ta'sir etmaydi.

Yog'in-sochin miqdori g'arbdan sharqqa tomon ortib boradi (100-400 mm). Asosiy gidrografik elementi Sirdaryo, u shu nomda aynan viloyat hududida, Norin va Qoradaryoning qo'shilishi natijasida shakllanadi. Biroq Sirdaryoning yerlarni sug'orishdagi ahamiyati katta emas, chunki u ancha pastlikda oqib o'tadi. Bu jihatdan uning irmoqlari - soylarning ahamiyati yuqoriroq: Rezaksoy, G'ovasoy, Kosonsoy, Chortoqsoy, Namangansoy va h.k. Ushbu soylarning yuqori qismida kichik-kichik suv omborlari qurilgan (Chortoq, Ko'ksaroy, Olmossoy, G'ovasoy, Kengko'lsoy, Rezaksoy va boshqalar).

Norin daryosi Qirg'iziston hududi, baland tog'liklardan vodiya chiqqandan so'ng keng yoyilib ketadi. Xuddi ana shu yerdan vodiyning aksariyat kanallari boshlanadi. Jumladan, Katta Namangan, Shimoliy Farg'ona, Katta Farg'ona, Katta Andijon kanallari Uchqo'rg'on shahri va Shamoldisoy shaharchasi yaqinidan boshlanadi. Katta Namangan kanali keyingi yillarda qurilgan bo'lib, u adir zonasining pastroq qismlarini sug'orishga mo'ljallangan. Umuman olganda esa, Namangan viloyati, ayniqsa, uning g'arbiy qismi suv bilan yaxshiroq ta'minlanmagan. Aynan shu joylarda va tog'oldi hududlarda juda ko'p ariqlar bor. Ular suv omborlaridan boshlanadi.

Namangan viloyati tabiiy boyliklariga uning dori-darmon uchun foydalaniladigan turli xil o'tlar (farmatsevtika resurslari) hamda rekreatsiya maskanlarini ham kiritish mumkin. Bunday joylarga Chortoq, Pop tumanidagi Parda Tursun sihatgohlari, Yangiqo'rg'on, Chust tumanlarining go'zal landshaftlari misol bo'la oladi.

Yaqin yillargacha Namangan viloyati respublikamizda aholisi nisbatan jadal ko'payib borayotgan hududlar qatoriga kirar edi. Ammo so'nggi yillarda demografik o'sish ko'rsatkichlari biroz pasayib bormoqda. Masalan, 1989-2000 yillarda viloyat aholisi yiliga o'rtacha 2,50 foizdan ko'payib borgan bo'lsa, 2000 yillar boshida bu ko'rsatkich 1,70 foizga tushib qolgan. Eng so'nggi yillarda aholi soni 1,70-1,80 foizdanga ko'payib bormoqda.

Namangan viloyatida aholining zichligi o'rtacha 1 kv. km ga 337 kishini tashkil qiladi. Bu raqam qo'shni Farg'ona ayniqsa, Andijon viloyatiga qaraganda biroz pastroq bo'lsada, u respublika ko'rsatkichidan 5 marta ko'pdir. Viloyat hududida aholi zichligi har xil; u Namangan shahriga bevosita yaqin, sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan tumanlarda (Uychi, To'raqo'rg'on, Norin, Namangan) 680-890 kishiga yetadi. Vaholanki, maydoni bo'yicha eng katta Pop tumanida zichlik 68 kishi, xolos. Bu esa butun Farg'ona iqtisodiy rayonida eng kichik ko'rsatkichdir. Shu qatorida, yangi o'zlashtirilgan Mingbuloq tumanida ham aholi joylashuvi uncha zich emas – 151 kishi va bu jihatdan u qo'shni Andijon viloyatining Ulug'nor, Bo'z, Farg'onaning Yozyovon tumanlariga o'xshab ketadi. Ma'lumki, bu ma'muriy birliklar Markaziy Farg'ona - Qoraqalpoq cho'li hududlarida joylashgan. Demak, viloyat tumanlarining demografik sig'imi bir-biridan ancha farq qiladi. Bunday holat asosan suv resurslarining hududiy shakllanishiga bog'liq bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Viloyatda aholi soniga ko'ra Chust tumani oldinda turadi. Bu yerda 237,6 ming kishi istiqomat qiladi. Qolgan qishloq tumanlari aholisi esa Mingbuloq tumanidagi 112 ming kishidan Namangan tumanidagi 212 ming kishigacha farq qiladi. Aholi sonining nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishiga uning tabiiy harakati sababchidir. Chunonchi, 2001 yilda tug'ilish 20,7 promille, o'lim 4,7 va tabiiy ko'payish 16,0 promillega teng bo'lgan (1999 yilda bu ko'rsatkichlar yuqoridagilarga mos ravishda 23,1, 4,9 va 18,2 promilleni tashkil etgan). 2010 yilda tabiiy harakat ko'rsatkichlari quyidagicha: tug'ilish 21,5, o'lim 4,5, tabiiy ko'payish 17,0 promille, 2013 yilda mos ravishda, 22,9; 4,6 va 18,3 promille.

Namangan viloyatida, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi, shahar aholisi 1989-2008 yillarda deyarli o'smadi yoki uning o'sishi qishloq aholisining ko'payishidan uncha ortiq bo'lmadi. Natijada, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi bu davrda keskin o'zgarmadi, aksincha, mamlakat va qator viloyatlarda u hatto qisqardi. Ammo 2009 yilga kelib "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini qabul qilish va amalga oshirish munosabati bilan vaziyat keskin o'zgardi, ya'ni urbanistik to'lqin vujudga keldi. Birgina Namangan viloyatida 109 ta qishloq aholi punkti shaharcha maqomiga muvassar bo'ldi va urbanizatsiya ko'rsatkichi 2008 yildagi 37,1 dan 64,7 foizga "sakradi". Hozirda viloyat mazkur ko'rsatkich bo'yicha respublikamizda birinchi o'ringa chiqib oldi. Vaholanki, sanoat ishlab chiqarish va umuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bunga mos kelmaydi.

Tashkil etilgan yangi shaharchalar, to'g'rirog'i – **agrosaharchalar** aholisi 613,1 ming kishi yoki 2008 yil qishloq aholisining 44,8 foizi, 2009 yil shahar aholisining 42,7 foizi demakdir. To'raqo'rg'on tumanida bunday manzilgohlar 12 ta, ularning umumiy aholisi 64,2 ming kishi. Uychi tumanida, mos ravishda, 11 ta va 47,3 ming kishi. Pop va Kosonsoy tumanlarida 10 tadan; ular orasida eng yiriklari Chodakda 13,8, Sangda 13,6 (Pop tumani), Ozod shaharchasida 9,7 ming kishi (Kosonsoy tumani) istiqomat qiladi. Shuningdek, Namangan tumanining G'irvon shaharchasida 13,4, G'alchada 13,0, Uchqo'rg'onning Kayki shaharchasida 16,4, Chust tumanining sobiq Olmos qishlog'ida 23,5, Varzikda 12,5 ming kishi aholi bor. Namangan viloyati O'zbekistonda qishloq aholi punktlarining kattaligi bilan alohida ajralib turadi. 2008 yilda har bir qishloqqa o'rtacha 2672 kishi aholi to'g'ri kelgan. Viloyatning urbanistik tarkibi assimetrik ko'rinishga ega; bu yerda faqat bitta katta shahar - Namangan bor, xolos (Farg'ona viloyatida ular 3 ta). Viloyat markazida 2014 yil boshida 475,7 ming aholi bor. Chust – viloyatning "ikkinchi" shahrida 71,0 ming atrofida, Chortoqda 52,6, Kosonsoyda 50,0 ming aholi joylashgan. Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Uychi, Yangiqo'rg'on "yarim o'rta" shaharlar sinfiga mansub (20,0-50,0 ming kishi). Qolgan barcha 119 ta shahar va shaharchalarning aholisi 20 mingdan oshmaydi.

Viloyatda qishloq aholi punktlari 402 ta, har bir qishloqqa o'rtacha 2210 kishidan to'g'ri keladi. Bu respublikamizda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Qishloqlar geografiyasida soylar o'ziga xos o'ringa ega. Nisbatan yirik qishloq aholi punktlari soylarning pastki qismida, kanal va ariqlar bo'yida, Namangan shahri atrofida joylashgan. Ayni vaqtda tog' va tog' oldi hududlarda, xususan, Pop tumanida mayda va tarqoq joylashgan qishloqlar ham oz emas. Bu esa ularda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga ancha noqulayliklar tug'diradi.

Namangan viloyati aholisining milliy tarkibi har xil. Bu yerda o'zbeklardan tashqari tojik, qirg'iz, rus, tatar va boshqa millat vakillari yashaydi. O'zbeklar jami aholining 88,8 foizini tashkil qiladi (2013 y.), tojiklar ko'proq Chust, Kosonsoy va Pop tumanlarida, qirg'izlar Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlarida joylashgan. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni, 2014 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra, 1499 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 953 ming, iqtisodiyotda band bo'lganlar 904 ming kishi.

Namangan viloyati iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega. Bu yerda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari mavjud, ularning rivojlanganlik holati, ixtisoslashuvi va muammolari viloyatning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, demografik vaziyati va mehnat salohiyati, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma ta'sirida shakllangan. Viloyat yalpi hududiy mahsulotining 9,8 foizini sanoat, 32,7 foizini qishloq xo'jaligi beradi. Qurilishning ulushi 7,9 foizga, transport va aloqaniki 9,7, savdo va umumiy ovqatlanishning hissasi 9,2 va soliqlar salmog'i 3,0 foizga teng

Namangan viloyati sanoati rivojlanishi eng so'nggi yillarda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lmoqda. Jumladan, 2010 yilda viloyat YAHM 110,9 foizga o'sgan holda, sanoat ishlab chiqarishi 123,7 foizga ortgan. 2013 yil boshida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2887 ta, shundan yiriklari 34 ta. Jami sanoat korxonalarida 110 mingdan ortiq kishi xizmat qiladi, vaholanki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 37 ming bo'lgan. Umumiy sanoat mahsulotining 3/5 qismini xalq iste'mol mollari tashkil qiladi. Ularning 61,2 foizi oziq-ovqat mahsulotlariga, 15,7 foizi yengil sanoat mahsulotlariga to'g'ri keladi.

2010 yilda viloyatda 8756 ming kv. m ruberoid (“Uzruberoid” MCHJ va “Rou-Tom” qo’shma korxonasi, Pop tumani), 9258 ming kv. m yumshoq tom yopg’ich mahsulotlar, 75,2 ming t. omuxta yem, 7846 ming kv. m ip gazlama, 2390 ming dona trikotaj mahsulotlari (oldingi yilga nisbatan 2,1 marta ko’p), 83,7 ming t. paxta tolasi ishlab chiqarilgan. Oziq-ovqat mahsulotlaridan 11,9 ming t. o’simlik yog’i, 38009 sh/b meva-sabzavot konservalari, 5,8 ming t. sut va sut mahsulotlari tayyorlangan. Bir yilda un 140,7 ming t. hajmida ishlab chiqarilgan.

Viloyat sanoat korxonalarining ko’pchiligi paxta tozalash va meva-konserva zavodlaridan iborat. Paxta tozalash zavodlari barcha qishloq tumanlari markazlarida, konserva - Namangan, To’raqo’rg’on, yog’ zavodlari Namangan, Uchqo’rg’onda joylashgan. Xorijiy investitsiyalar yordamida 63 ta qo’shma korxonalar faoliyat ko’rsatgan. Ularning eng ko’pi Namangan shahri (23 ta) hamda Namangan va Uychi tumanlarida tashkil etilgan. Shuningdek, bu turdagi korxonalar Pop, Kosonsoy, Chust, To’raqo’rg’on va boshqa qishloq tumanlarida ham mavjud. Sanoat salohiyatining hududiy tarkibi quyidagicha: Namangan shahri 41,9 foiz, Uchqo’rg’on tumani – 9,6 foiz, Namangan – 9,0 , Uychi – 7,5 , Pop - 5,9 foiz va h.k.

Mintaqa iqtisodiyotida qishloq xo’jaligi yetakchi rol o’ynaydi. Hududning yer maydoni, uning agroiqlimiy resurslari, soylar va qator irrigatsiya infratuzilmasi ko’p tarmoqli qishloq xo’jaligining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yerda Shimoliy Farg’ona kanali, Katta Andijon, Katta Namangan va Katta Farg’ona kanallari asosiy sug’orish manbalari hisoblanadi.

Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 718,1 ming gektar, uning 390,3 ming gektari qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlardir (54,3 foiz). Yerning foydali koeffitsiyenti Namangan, Norin, Uychi tumanlarida yuqori, Pop tumanida esa u biroz past – 52,6 foiz. Sug’oriladigan yer maydonlari viloyatda 235 ming ga yoki qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning 60,9 foiziga teng. Norin, Mingbuloq, Uychi, Uchqo’rg’on, Namangan tumanlari qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning deyarli 100 foizi sug’oriladigan yerlardan iborat. Qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning 50,8 foiziga ekinlar ekiladi. Bu ko’rsatkich Mingbuloq, Uchqo’rg’on, Norin

hamda Uychi tumanlarida yuqori, uning nisbatan past darajasi esa Yangiqo'rg'on, Pop va Kosonsoy tumanlarida kuzatiladi. Pichanzorlar va yaylovlar ulushi o'rtacha 39,1 foiz bo'lgan holda, uning kattaroq ko'rsatkichlari Pop va Kosonsoy tumanlarida qayd etiladi.


Viloyat qishloq xo'jalik mahsulotining 31,6 foizini fermer xo'jaliklari ta'minlaydi. Jami ekin maydoni 2012 yilda 221 ming ga bo'lib, ularning 88 foizi fermerlarga berilgan. Shu yilda 93 ming gektar maydonga donli ekinlar ekilgan, shu jumladan, bug'doy 88 ming ga, yalpi hosil 501 va 442 ming t. Har bir gektardan 51 sentnerga yaqin bug'doy olingan. Paxta maydoni 83 ming ga, yalpi hosil 233 ming tonna, hosildorlik 28,0 s/ga. Boshqa texnika va moyli ekinlardan kungaboqar ajralib turadi. Uning maydoni faqat 2009 yildagi 280 gektardan 2012 yilda 2440 gektarga yetgan, yalpi hosil 4954 tonna; yer yong'oq 2009 yilda 109 gektarga ekilgan, 2012 yilda esa ancha qisqargan – 76 ga, yalpi hosil 398 t.

Namangan viloyati mamlakatimizda kartoshka yetishtirishda ham ko'zga ko'rinarli mavqega ega maydoni (6,7 ming ga). Bu ekin, xususan, Yangiqo'rg'on, Chust, Chortoq tumanlarida ko'proq ekiladi. Viloyat bo'yicha bir yilda 188 ming tonna kartoshka olingan. Shuningdek, sabzavot (13,9 ming ga), poliz ekinlari (1,9 ming ga) ham ancha ko'p. Sabzavotchilik Namangan shahri atrofida, poliz, qovun (shakarpalak, obi navvot va b.) Chust va Pop tumanlarida ko'p yetishtiriladi.

Em-xashak ekinlaridan (13,8 ming ga) ko'proq silos uchun makkajo'xoriekiladi. Viloyat adir mintaqalari, ayniqsa, bog'dorchilik uchun qulay. Uning maydoni 26,7 ming ga, yalpi hosil 158 ming tonna. Bu esa, o'z navbatida, meva-konserva sanoati uchun muhim xom ashyodir. Tokzorlar maydoni ham ancha – 11,1 ming ga. Umuman viloyat shirin-shakar uzum va anorlari, "Namangan olmasi" kabilar bilan mashhur.

2013 yil boshida yirik shoxli qoramollar soni 557 ming bosh. Agar qoramolchilik uchun viloyatda sharoit birmuncha cheklangan bo'lsa, qo'y va echkichilikka bu yerda qulay imkoniyatlar mavjud. Ularning soni 648 ming bosh. Bu borada, eng avvalo, Pop tumani ajralib turadi. 2012 yilda tirik vaznda 93 ming tonna go'sht, 464 ming t sut, 170 mln. dona tuxum, 1350 tonna atrofida jun, 2646

tonna pilla olingan. Viloyatning, xususan tog' etaklarida asalarichilik ham yaxshi rivojlangan (4-rasm).



**4-rasm. Namangan viloyati ekin maydonining tarkibi**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining salmog'i bo'yicha Yangiqo'rg'on va Chust tumanlari yetakchilik qiladi: 18,0 va 10,0 foiz. Qizig'i shundaki, Namangan shahri ham viloyat qishloq xo'jalik mahsulotlarining 7,3 foizini beradi. Bu hozirgi zamon urbanizatsiyasi nuqtai nazaridan antiqa holatdir. Nisbatan kam ko'rsatkichga Kosonsoy va Mingbuloq tumanlari ega. Albatta, real vaziyat yuqoridagi ko'rsatkichlarda emas, balki aholi jon boshiga hisoblaganda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jihatdan Yangiqo'rg'on va Mingbuloq tumanlari oldinda, Kosonsoy, Uychi, Pop tumanlarida esa pastroq mavqeni egallaydi.

Viloyat qishloq xo'jaligida fermerchilik ham ancha rivojlangan. 2013 yilda 5793 fermer xo'jaliklari bo'lgan va ularga 265 ming gektar yer maydoni birlashtirilgan; jami ishlovchilar soni 83,0 ming kishi. Har bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 45,7 ga yer va 14,3 kishidan ishchi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatimizning ko'pgina mintaqalariga qaraganda sezilarli darajada kichik. Ushbu mulkchilik shakli ayniqsa Mingbuloq va Pop tumanlarida yaxshi natijalarga ega. Bunday hududiy tafovutlar qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, yer-suv imkoniyatlari hamda geodemografik vaziyat ta'sirida yuzaga keladi. Tahlillar ko'rsatishicha, fermer

xo'jaliklari g'alla, paxta, yem-xashak, bog'dorchilik hamda uzum yetishtirishda yetakchi soha hisoblanadi. Dehqon xo'jaliklari esa ko'proq sabzavot, poliz mahsulotlarini yetishtiradi, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Dehqonchilikda xususan Chust tumani, uning Olmos qishlog'i (agrosaharchasi) tadbirkorlari respublikamizda ma'lumu-mashhurdir.

Mintaqalar iqtisodiyotining hududiy majmua sifatida shakllanishi ularning ijtimoiy sohalarini rivojlanishini ham talab qiladi. Chunki, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq, birining rivojlanishi ikkinchisi uchun tegishli imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratadi. Namangan viloyati nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida 280 ming kishiga yaqin yoki jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 32 foizi xizmat qiladi. Mintaqa YAHM da xizmatlarning hissasi 45 foiz atrofida. Ta'kidlash joizki, yalpi hududiy mahsulot tarkibida savdo va umumiy ovqatlanish hamda soliqlardan tashqari "boshqa" segmentlarning ulushi ancha yuqori.

Sog'liqni saqlash tizimida jami 113 ta tibbiyot muassasalari mavjud: har 10 ming kishiga bemorlar o'rinlari – 50,3 ni tashkil qiladi. Shu jumladan, Namangan shahrida 108,5, Pop tumanida 61,6, Kosonsoyda 43,5, Norin va Namangan tumanlarida esa pastroq. Ayni vaqtda, odatda, viloyat markaziga tutash qishloq tumanlarida ijtimoiy sohalar rivojlanishi pastroq ko'rsatkichlarga ega. Gap shundaki, bunday hududlarning aholisi o'zlarining ijtimoiy ehtiyojlarini asosan viloyat ma'muriy markazlarida qondirishadi. Viloyatda har 10 ming kishiga 21 nafar vrachlar va 108 ta o'rta meditsina xodimlari to'g'ri keladi. Namanganda qadimdan xalq tabobati ham rivojlangan, bu yerda turli xil dorivor o'simliklar ko'p. Mintaqada rekreatsiya imkoniyatlari ham oz emas. Viloyat markazidan o'tgan magistral kanallar sohillarida tashkil etilgan oromgohlar, choyxona va oshxonalar ham kishilarga dam, rohat-farog'at bag'ishlaydi. Bir vaqtlar Namangan respublikamizda "gullar shahri" nomi bilan ma'lumu-mashhur bo'lgan.

Markazlashgan suv ta'minoti viloyat bo'yicha o'rtacha 74,8 foiz. Gaz bilan ta'minlanishi markazlashgan suv ta'minotiga qaraganda biroz yaxshiroq – 83,5 foiz. Namangan shahri aholisi 100 foiz ta'minlangan holda, yuqoriroq

ko'rsatkichlar Mingbuloq, Pop va Chust tumanlarida ko'zga tashlanadi. Biroq, Norin tumani xonadonlarining 2/3 qismi tabiiy gaz bilan ta'minlangan, bu muammo Yangiqo'rg'on, Uchqo'rg'on tumanlari uchun ham xosdir.

Viloyatda 2012/2013 o'quv yilida xalq ta'limi tizimida jami 474 ta maktabgacha tarbiya muassasalari mavjud bo'lgan. Umumta'lim maktablari 689 ta, har bir maktabda o'rtacha 530 nafar o'quvchi o'qigan. Akademik litseylar 10 ta, talabalar soni 9,1 ming, kasb-hunar kollejlari 108 ta, talabalar 138,3 ming kishi. Namangan shahrida 3 ta oliy o'quv yurti, shu jumladan Davlat universiteti faoliyat ko'rsatmoqda. Tibbiyot va pedagogika kasb-hunar kollejlari Chust, Kosonsoy kabi yirik qishloq tumanlari markazlarida joylashgan.

Namangan viloyati hududining ichki tuzilishi, geografik qiyofasi (ya'ni g'arbdan sharqqa cho'zilganligi, tog' va tog' oldi - adirlarda joylashganligi), geografik o'rni uning transport infratuzilmasi rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Respublika markazining Farg'ona vodiysi viloyatlari, qolaversa, Qirg'iziston va hatto Xitoy davlatlari bilan avtomobil transport aloqasi aynan Namangan viloyati hududidan (Angren - Pop yo'li Qamchiq dovoni orqali) o'tadi. Shu bois, viloyatning transchegaraviy va tranzit xususiyati katta. Bunday xususiyat 2016 yilda Angren-Pop temir yo'li ishga tushirildi.

2013 yilda viloyat bo'yicha 39,1 mln tonna turli xil xalq xo'jalik yuklari tashilgan. Bu xususda Namangan shahridan tashqari, Chust va Uchqo'rg'on tumanlari oldinda. Yo'lovchilar tashish hajmi esa 342,9 mln kishini tashkil qilib, u Namangan shahri, shuningdek, Chust, Kosonsoy, Namangan qishloq tumanlarida nisbatan ko'proq.

Ta'kidlash joizki, Namangan viloyatining eksport-import salohiyati ham uncha katta emas. 2013 yilda respublika umumiy ko'rsatkichiga nisbatan eksport bor-yo'g'i 0,7, import 1,2 foizga teng bo'lgan. Mutloq raqamlarda eksport hajmi 94,7 mln. AQSH dollari, import – 138,3 mln. dollar; tashqi savdo aylanmasi – 232,9 mln. dollar. Eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ustunlik qiladi – 17,8 foiz, paxta tolasi – 9,3 foiz. Importda mashina va uskunalarning ulushi 32,7 foizni tashkil qiladi. Mintaqa eksportining 52,5 foizi, importining 50,3 foizi “Uzoq” xorij

va Boltiqbo'yi davlatlari bilan amalga oshiriladi. Qolgan qismi MDH mamlakatlari zimmasiga tushadi.

### **1.3. Farg'ona viloyatining geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari**

Farg'ona viloyati respublikamizda 1938 yilda tashkil topgan 5 ta viloyatlardan biri hisoblanadi. Uning maydoni 6,76 ming kv km bo'lib, bu borada Sirdaryo, Andijon va Xorazm viloyatlaridan oldinda turadi. O'zbekiston Respublikasi maydoniga nisbatan esa Farg'onaning hududi atigi 1,5 foizga teng, xolos. Vaholanki, bu yerda, 1.01.2014 yil ma'lumotlariga ko'ra, 3386,1 ming yoki mamlakat aholisining 11,1 foizi yashaydi. O'zining demografik salohiyati bo'yicha u mamlakatimizda Samarqand viloyatidan keyingi 2-o'rinda turadi.

Ma'muriy tuzilishiga ko'ra 4 ta viloyatga bo'ysunuvchi shahar, 15 ta qishloq tumanlari mavjud. Shaharchalar soni 197 ta, qishloq fuqarolar yig'inlari 161 ta, qishloq aholi punktlari 1020 ta. Yuqorida keltirilgan raqam va holatlar shundan dalolat beradiki, Farg'ona viloyatining demografik "yuki" og'ir, aholisi zich, hududi yuqori darajada o'zlashtirilgan, boshqaruv tizimi murakkab. Asosiy shaharlari, xususan Qo'qon va Marg'ilon ham 2000 yillik tarixga ega. Viloyat markazi 1877 yilda Farg'ona vodiysi Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng Yangi Marg'ilon, keyinchalik Skobelev nomi bilan barpo etilgan. Bu hozirgi mustaqil mamlakatimiz hududida ruslar asos solgan 3 ta shaharlardan biridir. Qolgan ikkitasi Kogon (Yangi Buxoro) va To'rtko'l (Petroaleksandrovsk).

Viloyatning ma'muriy-siyosiy jihatdan "zichligi" uning qishloq tumanlarini uncha katta emasligi va bir-biridan bu borada katta farq qilmasligiga sabab bo'ladi. Darhaqiqat, mintaqaning har bir qishloq tumaniga o'rtacha 0,45 ming kv. km maydon to'g'ri keladi. Bu respublikaning ayrim hududlari, jumladan, cho'l va tog'li mintaqalariga qaraganda juda kichik raqamdir.

Eng katta tuman – Beshariq 0,77 ming kv km maydonni egallasa, Toshloq

tumanida 0,24 ming kv. km maydon bor; farq 3,2 martaga teng. Hududi birmuncha kattaroq qishloq tumanlari viloyatning tog' oldi, adir yoki "cho'lroq" qismlarida joylashgan. Masalan, O'zbekiston yoki Beshariq tumanlari shular jumlasidandir. Farg'ona viloyati respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. U mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 6,7 foizini, sanoat ishlab chiqarishini 7,6 foiz, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ham 8,3 foiz ta'minlaydi; investitsiyalar hajmi 5,5 va kapital qurilishlar 4,8 foiz. Viloyatga O'zbekiston eksportining 2,7 va importning 4,5 foizi to'g'ri keladi (2013 y.). Ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyati ba'zi sohalarida ko'zga ko'rinarli nisbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsada, bu raqamlar ko'p hollarda uning mavjud demografik sig'imidan past. Demak, bu yerda ham ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ko'tarish masalasi dolzarbdir.

Viloyat Farg'ona vodiysining g'arbiy va janubiy qismida joylashgan. U g'arbda va janubi-g'arbda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janubda Qirg'iziston Respublikasining O'sh va Botken viloyatlari bilan chegaradosh, respublikamizda esa, shimolda Namangan va sharqda Andijon viloyatlari bilan qo'shnichilik qiladi. Viloyatning shimoli-g'arbidagi chegarasi Sirdaryo oqimi bo'ylab o'tadi.

Farg'ona viloyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning hududi geografik jihatdan yaxlit emas; Farg'ona tumanining bir qismi (Shohimardon) va So'x tumani Qirg'iziston hududining ichida, eksklav holatda joylashgan. Bunday geosiyosiy vaziyat xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, suv va yer zahiralardan foydalanish va, umuman, hududni boshqarish tizimida ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Yer usti tuzilishi uncha murakkab emas, u janubdan shimolga tomon pasayib boradi. Shimolda mutlaq balandlik dengiz sathidan 360-380 m, janubda eng baland nuqtalar 2200 m dan ortadi. Relief shaklining bunday tuzilishi viloyat janubiy qismini tog'lardan oqib chiqadigan soylar suvi bilan sug'orish uchun tabiiy qulaylik yaratadi.

Farg'ona viloyati ham, qo'shni hududlar singari, qazilma resurslarga boy emas. Bu yerda biroz neft va qurilish sanoati uchun xom ashyo mavjud, xolos. Neft

zahiralarini qazib olish o'tgan asrning dastlabki yillarida chet mamlakatlar sarmoyasi yordamida (Belgiya va boshqalar tomonidan tashkil etilgan SANTO kompaniyasi) qazib olinib boshlagan. Respublikadagi eng qadimiy neft koni ham shu viloyatda (Chimyon). Sho'rsuvda ilgari oltingugurt va ozokerit qazib olinardi, hozirda esa uning zahiralarini sanoat ahamiyati qolmagan. Bu yerda keramzit, shuningdek, qurilish materiallari – g'isht, sement hamda chinni, oyna ishlab chiqarish xom ashyosi ham mavjud. Umuman olganda, viloyatning mineral-resurs salohiyati katta emas, binobarin, uni rayon hosil qiluvchi yoki mintaqaviy rivojlanishining asosiy omili sifatida baholash qiyinroq.

Iqlimi quruq, kontinental, yillik yog'in-sochin miqdori Namangan viloyatidan sal ko'proq, Andijondan esa biroz kamroq (300-400 mm atrofida). Viloyatning shimoliy qismida Markaziy Farg'ona cho'llari – Qoraqalpoq va Yozyovon cho'llari mavjud bo'lib, ularning davomi qo'shni Namangan va Andijon viloyatlariga o'tib ketadi.

Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Shohimardonsoy va Isfayramsoylarning ham ahamiyati katta. Shohimardonsoyning davomi Marg'ilonsoy, Oltiariqsoy va ulardan taralib ketgan ko'plab ariqlar muhim sug'orish manbai va agrolandshaftlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Shohimardonsoy Isfayramsoy bilan birgalikda Farg'ona, Oltiariq, Qo'shtepa, qisman Toshloq va Yozyovon tumanlarini suv bilan ta'minlaydi. Isfara daryosining ta'sir doirasi esa asosan Beshariq tumani bilan chegaralanadi. Ayni vaqtda eng katta va sersuv So'x o'zining tipik geografik yoyilmasi (konusini) tashkil etgan va uning suvlari butun Qo'qon vohasi, ya'ni Dang'ara, Yaypan, Uchko'prik, Buvayda, So'x, Rishton, Furqat tumanlarini sug'oradi (5-rasm).

O'tgan asrning o'rtalarida qurilgan Sariqo'rg'on (Sirqo'rg'on) gidrouzeli So'x daryosini to'sib, uning suvini turli qismlarga taqsimlaydi. Ayni paytda aksariyat suv manbalari qo'shni mamlakatlar hududidan boshlanganligi sababli ular strategik ahamiyat ham kasb etadi va xalqaro tartib-qoidalar asosida davlatlararo to'g'ri foydalanishni talab qiladi.

# FARG'ONA VILOYATI IQTISODIY KARTA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
FARG'ONA VILOYATINING SALMOG'I  
(foizda, 2011 y.)



Sanoatning asosiy tarmoqlari:  
elektrenergetika, kimyo, neft-kimyo va neftni qayta  
ishlash, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat  
Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari:  
donchilik, paxtachilik, bog'dorchiilik va uzumchilik,  
go'sht-sut chorvachiligi, parrandachilik, ipakchilik



SHAHAR VA QISHLOQ  
AHOLISINING SONI  
(foizda, 2012 y.)



### QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISOSLASHUVI

- Sug'orma dehqonchilik zonasi**
- Shahar atrofi xo'jaligi: sabzavotchilik, bog'dorchiilik va uzumchilik, sut-go'sht chorvachiligi
  - Donchilik, paxtachilik, ipakchilik, mevachilik, sut-go'sht chorvachiligi
  - Paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, mevachilik, sut-go'sht chorvachiligi
- Tog'-yaylov zonasi**
- Tog'-yaylov chorvachiligi (go'sht-jun qo'ychiligi va qo'sht-sut chorvachiligi) daryo vodiylarida bog'lar va uzumzorlar

### KENG TARQALGAN RAYONLAR

- bag'lar
- uzumzorlar
- anor va anjirzorlar
- sabzavot va kartoshka
- parrandachilik
- makkajo'xori
- sholi
- don-dukkaklilar
- o'rmonlar
- asalarichilik
- ipakchilik

### RAYONLAR

- asalarichilik
- ipakchilik

### ISHLOV BERUVCHI SANOAT (2010 y.)

Yalpi mahsulot hajmi  
bo'yicha sanoat punktlari



### Sanoat tarmoqlari


- Elektrenergetika
- Mashinasozlik va metallni qayta ishlash
- Kimyo, neft-kimyo va neftni qayta ishlash
- Qurilish materiallari
- Yengil
- Oziq-ovqat
- Boshqa tarmoqlar

### UNDIRUVCHI SANOAT

- Neft
- Neft va tabiiy gaz
- Keramzit xom ashyosi
- Gilmoza tuproq
- Sement xom ashyosi
- Mineral suv buloqlari
- Avval Kontarning nomlari

- Issiqlik elektrstansiyasi
- Elektr uzatkich liniyalari
- Gaz quvurlari
- Neft quvurlari

SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI  
YALPI MAHSULOTLARI HAJMI  
(2011 y.)



5-rasm.Farg'ona viloyatining iqtisodiy kartasi.

“Tabiat - aholi - xo’jalik” uchlik tizimida aholi markaziy o’rinda turadi. U tabiatga ta’sir qiladi, undan foydalanadi, xo’jaligini tashkil etadi va o’z hayotini kechiradi. Tabiat, aholi va xo’jalikning o’zaro munosabati umumgeografik ayni vaqtda geoeologik vaziyatni yuzaga keltiradi. Viloyatda aholi o’sish sur’ati o’rtacha darajada. Farg’ona viloyati respublikamizda aholisi o’ta zich joylashgan mintaqalardan biridir. Bu yerda har 1 kv. km maydonga 501 kishi to’g’ri keladi.

Bu xususda, ayniqsa, Toshloq (749 kishi), Uchko’prik (725 kishi) va Buvayda (724 kishi) keskin ajralib turadi. Shu sababdan mazkur tumanlarda yer maydonining tanqisligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Bu esa, o’z navbatida, yetarli ish o’rinlarning ozligi tufayli ichki va tashqi migratsiyani zaruriyat qilib qo’yadi. Zichlik ko’rsatkichi eng past So’x tumanida – 222 kishi. Umumdemografik salohiyatiga qaraganda Quva, Beshariq, Buvayda, Uchko’prik va O’zbekiston tumanlarida aholi soni 200 mingdan ortiq. Eng kam aholi So’x tumaniga tegishli – 69 ming kishi. Viloyat aholisining milliy tarkibini o’zbeklar 89,0 foiz, tojiklar 5,8 foiz, shuningdek, boshqa millat vakillari ham yashaydi (2013 y.). O’zbeklar barcha shahar va qishloq tumanlarida, tojiklar asosan So’x tumanida yashashadi. Rus va mahalliy bo’lmagan millatlar Qo’qon va, ayniqsa, Farg’ona shaharlarida ko’proq.

Aholi soni to’liq uning tabiiy ko’payishi negizida ko’payib bormoqda. 2013 yilda Farg’ona viloyati bo’yicha tug’ilish har ming kishiga 21,8 promilleni tashkil qilgan (taxminan respublika darajasida). Qayd etish lozimki, mazkur ko’rsatkich Yozyavon va, ayniqsa, So’x tumanida ancha yuqori: 24,4 va 28,4 promille .

Viloyatning hududiy-urbanistik tarkibi yaxshi rivojlangan, bu yerda 3 ta katta, ya’ni har birining aholisi 100 ming kishidan ortiq bo’lgan shaharlar mavjud: Farg’ona (265 ming kishi), Qo’qon (233 ming), Marg’ilon (215 ming kishi). “Ellikminglik” shahar viloyatda faqat bitta – Quvasoy (85 ming kishi), Quva shahrida 46 ming, Rishtonda 35 ming, qolganlarida aholi soni bundan kam. Kichik shahar va shaharchalar soni 2009 yilda yanada ko’paydi, urbanistik tarkib maydalashdi, kichik shaharlar muammosining dolzarbligi yanada kuchaydi. Shu yilda birdaniga 196 ta qishloqlarga yangi shaharcha maqomi berildi, bunday betakror urbanistik holat bo’yicha respublikamizda viloyat birinchi o’rinda turadi.

Ma'lumki, O'zbekistonda jami 966 ta yangi shaharchalar – agrosaharlar vujudga kelgan bo'lsa, ularning har beshtadan bittasi (1/5 qismi) aynan birgina Farg'ona viloyati xaritasida paydo bo'lgan.

Hozirgi vaqtda viloyatda 9 ta shahar, 200 ga yaqin shaharchalar bor (shahar joylar soni bo'yicha ham respublikamizda birinchi o'rinda) va ularda jami aholining 57,3 foizi istiqomat qiladi. Mazkur ko'rsatkich 2008 yilda 27,8 foizga teng bo'lib, bu borada viloyat Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlaridan oldinda turgan edi, xolos. Endi esa Farg'ona umumiy urbanizatsiya darajasi bo'yicha Namangan viloyatidan keyingi ikkinchi o'ringa "sakradi". Yangi shaharchalarning eng ko'pi O'zbekiston (21 ta), Farg'ona va Bog'dod (20 tadan) tumanlarida qayd etiladi. Ularning soni Quva, Qo'shtepa va Oltiariqda ham ko'proq. Aholi soni bo'yicha esa Farg'ona va Oltiariq tumanlari oldinda.

Farg'ona viloyatida 2009 yilda jami 993 qishloq aholi punktlari mavjud bo'lgan, ularning har birida o'rtacha 1255 kishi yashagan. (2013 yilda qishloq aholi punktlari 1020 ta; - qishloqlar aholisining o'rtacha kattaligi 1395 kishi). Qishloqlar geografiyasi o'ziga xos va betakror; ajoyib va g'alati nomli qishloqlar, kanallar, soy va yo'llar bo'ylarida zanjirsimon, yirik shaharlar atrofida ularga "yopishib" joylashgan. Qadimdan ko'p qo'l mehnatni talab qiluvchi sug'orma dehqonchilik bu yerda katta-katta qishloqlarga hayot bag'ishlagan. Aholi punktlarining g'uj joylashishi shaharlarning murakkab hududiy tizimi – aglomeratsiyalar shakllanishiga olib kelgan. Viloyat aholisi va iqtisodiyoti eng avvalo Farg'ona–Marg'ilon, shuningdek, vujudga kelayotgan Qo'qon aglomeratsiyasida mujassamlashgan.

Farg'ona viloyati xo'jaligi ko'p tarmoqli hududiy ishlab chiqarish majmuasini tashkil qiladi. Mintaqaviy iqtisodiyot, umuman olganda, industrial-agrar yo'nalishga ega. 2013 yilda yalpi hududiy mahsulotning 16,6 foizini sanoat ishlab chiqarishi bergan, qishloq xo'jaligining hissasi esa 20,4 foiz, qurilish – 6,3 foiz, transport va aloqa – 12,3 foiz, savdo va umumiy ovqatlanish – 8,7 foiz, soliqlar – 10,9 foiz. Qishloq xo'jaligining nisbati taxminan respublika o'rtacha darajasiga yaqin keladi. Sanoat ko'rsatkichi bu yerda Navoiy, Qashqadaryo, Toshkent va Andijon viloyatlaridan pastroq, qolganlaridan esa yuqori. Qishloq

xo'jaligining ulushi bo'yicha faqat Navoiy viloyati Farg'onadan pastroq, xolos.

Mintaqa sanoati o'zining ko'p tarmoqli yo'nalishlari bilan mamlakatimizning boshqa hududlaridan farq qiladi. Bu yerda an'anaviy yengil va oziq-ovqat sanoati bilan bir qatorda og'ir sanoat tarmoqlari korxonalari ham mavjud. Xususan, kimyo va neft kimyosi, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat va boshqalar yaxshi rivojlangan. Ko'pgina korxonalar Farg'ona iqtisodiy rayonida yagona hisoblanadi (masalan, IEM, Farg'ona furen birikmalari zavodi, Quvasoysement va b.).

Viloyatda jami 3624 faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari qayd etilgan, ularning yiriklari 46 ta. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi ham ancha katta. Uning tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlari 59,5 foizga barobar, shundan yengil sanoat – 12,0 foiz. Sanoat ishlab chiqarishining tarmoqlar tarkibi quyidagicha (mahsulot qiymati bo'yicha, 2012 y.): yoqilg'i-energetika sanoati – 33,5 foiz, kimyo va neft kimyosi – 10,4 foiz, mashinasozlik va metallni qayta ishlash – 2,4 foiz, qurilish materiallari sanoati – 10,5 foiz, farfor - fayans sanoati - 4,1 foiz, yengil sanoat – 24,0 foiz, oziq-ovqat sanoati – 10,2 foiz, un-yorma va kombikorm sanoati - 3,9 foiz. Viloyat og'ir sanoatining yirik korxonalari Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi (u Yaponiya firmalari bilan birgalikda qayta ta'mirlangan, buning uchun 250 mln. AQSH dollariga yaqin mablag' sarflangan), Farg'ona-azot, Farg'ona kimyoviy tola zavodlari, Qo'qon superfosfat zavodi, "Evraziya TAPO - DISK" QK, Farg'ona va Qo'qon mexanika zavodlari va boshqalar. Shuningdek, bu yerda Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi, "Quvasoysement", viloyatning turli hududlarida tashkil etilgan to'qimachilik qo'shma korxonalari ham faoliyat ko'rsatishmoqda.

2012 yilda viloyatda 511 ming tonna benzin (2009 y.-835 ming t.), 543 ming tonna dizel yonilg'isi (2009 yilda 891 ming t.) ishlab chiqarilgan. Bu yerda katta miqdorda mineral o'g'itlar, karbomid, sement va boshqa sanoat mahsulotlari tayyorlanadi. Bir yilda 109 ming t omuxta yem, 75-80 ming t paxta tolasi, 60-70 mln. kv m ip-gazlama, 3,5 mln dona trikotaj, 20-25 ming t o'simlik yog'i, 250 ming t un va boshqa mahsulotlar ham ishlab chiqariladi. Elektr energetika bazasini Farg'ona IEM va Quvasoy IES tashkil etadi. Mamlakatimiz miqyosida viloyat

yoqilg'i, neft va neft kimyosi, mineral o'g'itlar, sement kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shuningdek, bu yerda spirt (Qo'qon), Asaka avtomobillari uchun oyna ("Kvars" Quvasoy), o'simlik yog'i va xo'jalik sovunlari (Farg'ona va Qo'qon), konserva (Farg'ona), qandolat va mebel (Quva) ishlab chiqarish ham rivojlangan. Paxta tozalash zavodlari barcha qishloq tumanlari markazlarida mavjud.

Viloyat sanoatini hududiy tashkil etishda Farg'ona–Marg'ilon sanoat tuguni yetakchi mavqega ega. Bu yerda mintaqaning asosiy sanoat korxonalari mujassamlashgani bois, ishlab chiqarishning aglomeratsiya samaradorligi yuqori. Shu bilan birga, Qo'qon sanoat tugunining ham ishlab chiqarish geografiyasida mavqei ko'zga ko'rinarli. Farg'onada qadimdan hunarmandchilik va kosibchilik rivoj topgan. Do'ppi tikish, sopol buyumlar yasash - kulolchilik, yog'ochda o'ymakorlik ishlarini bajarish kabilar Qo'qon, Marg'ilon, Rishton, Bog'dod va boshqa shaharlarda tarixan shakllangan.

Sanoat mahsulotining 42,0 foizi birgina Farg'ona shahri zimmasiga tushadi; Quvasoy viloyat yalpi sanoat mahsulotining 12,0 %, Qo'qon 11,4%, Toshloq tumani 8,6 % ni beradi. Ayni vaqtda Buvayda, Yozyovon, Oltiariq, Qo'shtepa, So'x, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat tumanlarida qishloq sanoati nihoyatda sust darajada. Bir vaqtlar dunyoga mashhur bo'lgan Marg'ilon shahri ("xon atlas") hozirgi vaqtda depressiv holatda. U bor-yo'g'i viloyat sanoat mahsulotining 2,7 foizini beradi, xolos; Qo'qon paypoq ishlab chiqarish korxonasining holati ham deyarli shunga o'xshash.

Farg'ona viloyati respublikamizda muhim qishloq xo'jaligi rayoni ham hisoblanadi. Viloyat mamlakat yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 8,3 foizini beradi. Bu yerda paxta va pilla yetishtirish, sabzavotchilik va bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 62,0 foizi dehqonchilikka to'g'ri keladi. Fermer xo'jaliklari agroiqtisodiyot mahsulotining 34,4 foizini ta'minlaydi.

Viloyat umumiy yer maydonining 45,5 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarga to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Rishton, Uchko'prik, Bog'dod, Buvayda va Qo'shtepa tumanlarida yuqori (jami maydonning 60-70 foizi atrofida), So'x, Oltiariq, Beshariq, O'zbekiston, Farg'ona tumanlarida nisbatan

ozroq. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida sug'oriladigan yerlar ulushi o'rtacha 93,9 foiz. Bunday yerlar ham Qo'shtepa, Buvayda, Oltiariq, Toshloq, YOzyovon qishloq tumanlarida ko'proq. Ayni paytda So'x, Rishton, Uchko'prik tumanlarida sug'oriladigan yerlar ulushi ozroq.

Ekin ekiladigan maydonlar qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 78,3 foizini tashkil qiladi, yaylov va pichanzorlar 7,4 foiz. Intensiv qishloq xo'jaligi, ya'ni sug'orma dehqonchilik, xususan Oltiariq, Qo'shtepa, Quva, Toshloq tumanlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan, yaylov va pichanzorlar esa So'x, Rishton, O'zbekiston, Beshariq tumanlarida ko'proq. Jami ekin maydoni viloyat bo'yicha 290 ming gektar (2000 yilda 300 ming ga), uning 244 ming gektari fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan. Donli ekinlar 2012 yilda 132 ming gektarga ekilib, undan 771 ming tonna hosil olingan; hosildorlik 58,5 s/ga (shu jumladan, bug'doy maydoni 128,0 ming ga, yalpi hosil – 740 ming tonna). Boshqa donli ekinlardan qisman makkajo'xori ham ekiladi (6-rasm).



**6-rasm. Farg'ona viloyatining ekin maydoni (foizda).**

Ta'kidlash joizki, boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi bu yerda ham paxta maydonlari biroz qisqarib bormoqda. Masalan, 2000 yilda paxtazorlar jami ekin maydonining 41,0 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu raqam 34,5 foizga tushib qolgan. Umumiy maydoni 100 ming gektar yerga paxta ekilib, undan 280-290 ming tonna hosil olinadi, hosildorlik 28,2 s/ga (2000 yilda 363 ming t paxta, hosildorlik – 29,4 s/ga).

Tahlillar ko'rsatishicha, respublikamizda so'nggi yillarda kungaboqar yetishtirishga ko'p e'tibor berilmoqda. Agar undan inson salomatligi uchun sifatli yog' olinishi hisobga olinsa, bu jarayonni alohida ijobiy baholash lozim. 2012 yilda Farg'onada 107 gektar yerga kungaboqar ekilib, 1224 tonna hosil yetishtirilgan. Yog' olish maqsadida yer yong'oq ham ekiladi. Zig'ir va kunjut, masxar esa Farg'onada ekilmagan, vaholanki, bu moyli va texnik ekinlar Zarafshon vodiysi va Qashqadaryo viloyatida mavjud. Farg'ona viloyati kartoshka yetishtirishga ham ixtisoslashgan. Bu ekin ayniqsa So'x, Rishton, O'zbekiston tumanlarida ko'proq. Viloyat bo'yicha kartoshka maydoni 8,3 ming ga, yalpi hosil 208 ming tonna atrofida.

Farg'ona vodiysi, shu jumladan, Farg'ona viloyatida bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yerda o'rik, olma, anor, anjir, shaftoli, nok, behi, so'nggi yillarda xurmo, shuningdek, turli navli uzumlar yetishtiriladi. Jami mevazorlar maydoni 47 ming ga, bu soha ko'proq fermer xo'jaliklariga tegishli. YAlpi hosil 310 ming tonna. Uzumzorlar maydoni 5,6 ming ga, yalpi hosil 83 ming tonna. Uzum ko'pgina qishloq tumanlarida yetishtirilsada, biroq bu borada Oltiariq o'zining husayni uzumlari bilan dong taratgan.

Farg'onada chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlari respublikamizning cho'l mintaqalari, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlariga qaraganda biroz cheklangan. Bu yerda 1.01.2013 yilda yirik shoxli qoramollar soni 820 ming bosh, qo'y va echkilar – 707 ming bosh. Bir yilda go'sht (tirik vaznda) 113 ming tonna, sut 700 ming tonna, tuxum 215 mln dona, pilla 2500 tonna olinadi.

Bevosita agrogeografiya nuqtai nazaridan bog'dorchilik nisbatan adir zonalarda ko'proq, paxta viloyatning quyi qismida joylashgan barcha tumanlarida, sabzavotchilik yirik shaharlar atrofida rivojlangan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda Quva, Farg'ona, Oltiariq, Beshariq tumanlari yetakchi, ularning ulushi viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotiga nisbatan, mos holda, 7,0; 7,1; 8,4 va 6,9 foiz.

Aholi zich, uni ish bilan band qilish muammosi keskin bo'lgan mintaqalarda ijtimoiy sohalarni rivojlantirish o'ta dolzarb hisoblanadi. Yangi ish o'rinlarining ko'proq qismini qishloq joylarda, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik sohasida tashkil etilishi ushbu muammoni, qisman bo'lsada, yechishga yordam beradi. Viloyatda ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 85,5 foiz bo'lgani holda, u shaharlarda, shuningdek, Buvayda, Dang'ara, Oltiariq va O'zbekiston tumanlarida yuqoriroq. Ayni chog'da Rishton tumanining 71,6 foiz, Beshariq tumanining 72,7 foiz, So'x tumanining 67,4 foizi bunday imkoniyatlarga ega, xolos. Gaz bilan ta'minlanish mintaqada o'rtacha 81,2 foiz. Albatta, shahar joylar aholisi bu borada qulay sharoitlarga ega. Qishloq tumanlarida esa mazkur ko'rsatkich Bog'dod, Beshariq shaharlarida 65 foizdan Oltiariqning 99,1 foizigacha farq qiladi.

Nozogeografik vaziyat va aholi salomatligini yaxshilash har qanday mamlakat yoki mintaqa ijtimoiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichidir. Barkamol avlod, sog'lom bolani tarbiyalashda ham bu sohaning ahamiyati beqiyos. Farg'ona viloyatida jami 159ta tibbiy muassasalar soni bor, har 10000 kishiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari 41,5 ta. Quvasoy shahri, Bog'dod, Dang'ara, Qo'shtepa, Farg'ona va O'zbekiston tumanlarida bu daraja pastroq. Har 10 ming kishiga 21,1 vrachlar, 121,7 ta o'rta tibbiyot xodimlari to'g'ri keladi. bittadan. Aholi zich, soni nisbatan tez ko'payib borayotgan hududda xalq ta'limi geografiyasi ham o'ziga xos bo'ladi. Viloyatda 691 ta doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari mavjud bo'lgan, bolalar qamrovi 18,8 foiz. Umumta'lim maktablari 921 ta, o'quvchilar soni 481,4 ming kishi; bitta maktabga o'rtacha 523 o'quvchi to'g'ri keladi (2012/2013 o'quv yili). Akademik litseylar 12 ta, o'quvchilar soni 9,2 ming nafar, kasb-hunar kollejlari 145 ta, o'quvchilar 183,6 ming kishi. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatiga mos holda kasb-hunar kollejlari ham turli yo'nalishlarda shakllantirilgan va joylashtirilgan. Farg'onada 4 ta, shu jumladan, universitet, Qo'qon shahrida respublikamizning eng dastlabki oliy o'quv yurtlaridan biri – Pedagogika instituti bor.

Viloyatda transport infratuzilmasining barcha turlari bor. Ammo yuk va yo'lovchi tashishda asosan avtomobil transportining ahamiyati katta. Qo'qon, Marg'ilon shaharlari yirik transport tugun va markazlari vazifasini bajaradi. Viloyat hududidan O'zbekiston Respublikasini qo'shni Qirg'iziston hamda Xitoy respublikalari bilan bog'lovchi xalqaro avtomobil yo'llari o'tgan.

2013 yilda jami tashilgan yuk 93,2 mln. tonna bo'lib, uning 89,8 foizi avtomobil transporti zimmasiga tushadi. Shu yilda umumiy hisobda 538. mln yo'lovchi tashilgan, bu miqdorni to'liq avtomobil transporti amalga oshirgan. Xususi avtomobillarda jami yo'lovchilarning 3/4 qismidan ortiqrog'i tashilgan.

Farg'ona viloyati mamlakatimiz tashqi iqtisodiy aloqalarida faol ishtirok etadi. Bir yillik tashqi savdo aylanmasi, 2013 dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 1026,0 mln AQSH dollariga teng, shundan eksport hajmi - 420 mln, import - 606 mln. dollar. 2010 yilda ular, mos holda, 922,0; 475,0; 447,0 mln dollarni tashkil etgan. Eksport tarkibida energiya resurslari 10,1 foiz, paxta tolasi-9,5 foiz, kimyo sanoati mahsulotlari-20,9 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari-6,4 %. Importda energiya resurslari-51,6 foiz, mashina va uskunalari-16,4 foiz, kimyo sanoati oziq-ovqat mahsulotlari-8,8 foiz. Jami tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko'prog'i MDH mamlakatlari bilan amalga oshiriladi. Ular orasida asosiy aloqalar Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlar bilan olib boriladi. Ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyati, respublikamizning ba'zi mintaqalaridan farqli ravishda, MDH mamlakatlari bilan faolroq iqtisodiy munosabatlarga ega.

## ***II.BOB. FARG`ONA IQTISODIY RAYONI MAVZUSINI O`QITISH METODIKASI***

### **2.1. Farg`ona iqtisodiy rayoni mavzusining maktab geografiyasi ta'limida tutgan o`rni**

Maktab geografiya ta'limida “Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga umumiy o`rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o`quv dasturiga muvofiq ikki soat ajratilgan. Bu mavzu O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini o`tganda “Farg`ona iqtisodiy rayoni” haqida ma'lumot beriladi. “Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusining maktab geografiya kursida ahamiyati katta. Bu mavzuni o`zlashtirishdan oldin o`quvchilar 8-sinf O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursida iqtisodiy geografik rayonlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bosqichlari hamda tabiiy geografik xususiyatlari ya'ni geologik tuzilishi, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosi va tabiatini muxofoza qilish mavzularini chuqur o`rganadilar. Keyin iqtisodiy rayonning aholisi va mehnat resurslari, sanoati va qishloq xo`jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo`ladilar. Bu bilim va ko`nikmalar “Farg`ona iqtisodiy rayoni” haqidagi ma'lumotlar o`quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga olib keladi. Umumta'lim maktablarida dastlab O`zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiiy komponentlari va ularning o`zaro aloqadorligi, tabiiy sharoitining bir-biridan farq qilish xususiyatlari mavzulari o`rganiladi. O`quvchilar “Farg`ona iqtisodiy rayoni” haqidagi ma'lumotlarga ega bo`ladilar. Andijon, Namangan, Farg`ona viloyatlarining tabiiy geografik jihatidan joylashganligi va ularning mamlakatda tutgan o`rni, salohiyati, hozirgi holati, rivojlanish bosqichlari kabi bilimlar hamda yangi mavzuni o`zlashtirish uchun o`quvchilar ko`nikmaga ega bo`ladilar.

“Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusining maktab geografiya ta'limida tutgan o`rni va ahamiyati quyidagilardan iborat:

- O`quvchilarning “Farg`ona iqtisodiy rayoni” haqidagi bilimlarni o`zlashtirish ularda bu mavzuga oid tushunchalarni kengayishiga olib keladi.

- “Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusi orqali o`quvchilar viloyatlarning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosi hamda aholisi va mehnat resurslari kabi bilimlarga ega bo`ladilar.

O`zbekiston o`z mustaqilligiga erishgach o`z istiqlol va taraqqiy yo`lini o`zi belgiladi. O`z iqtisodiyotini o`zi yuritish kabi yutuqlarini qo`lga kiritdi. Shundan so`ng darsliklar ham qayta ko`rilib chiqildi. 8-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darsligi ham yangi dasturda qaytadan tuzilib chiqildi. Bunda birinchi qismda O`zbekiston iqtisodiyotiga umumiy ta`rif berilib, ikkinchi qismda O`zbekistonning 8 ta iqtisodiy rayonlari hamda bu iqtisodiy rayonlarni tashkil etuvchi viloyatlariga tavsif berilgan.

Men malakaviy bitiruv ishini shu sinfda o`qitiladigan “Farg`ona iqtisodiy rayoni” va uni tashkil etuvchi viloyatlarni o`qitish metodikasiga baqishladim, har bir iqtisodiy rayonni o`quvchilarga o`qitish, o`rgatish qanchalik muhim bo`lsa, bu mavzuni o`rganish ham shunchalik katta aqamiyatga ega. Mavzuning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchi o`quvchilarda mamlakat, uning alohida viloyatlari uning sarxadlari tabiiy boyliklari, aholisi, xo`jaligi va yirik shaharlari haqidagi tushunchalarni ixtisoslashish tarmoqlarini shakllantiradi;

Ikkinchi “Farg`ona iqtisodiy rayoni” ning boshqa iqtisodiy rayonlar orasida tutgan o`rni, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli haqida o`quvchilarga ma'lumot berilib, ularning bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Uchinchi o`quvchilarga yozuvsiz karta bilan ishlashni, atlasdan nusxa ko`chirishni o`rgatish, ularning rassomchilik faoliyatlarini shakllantirish va hozirgi kunda iqtisodiy rayon haqidagi bilimlarini ma'lum bir tizimga solishdan iborat.

To`rtinchi darsni tashkil etishda muhim nuqtalar, xususan qanday geografik nomlar, yangi terminlar o`rganilishini aniqlab olish aloqida ahamiyatga ega.

Beshinchi oldin o`rganilgan iqtisodiy rayon haqidagi bilimlardan qaysilari qaytariladi, qaysilariga suyanib bilim beriladi, boshqa fanlardan berilgan

tushunchalardan qaysilari esaga olinadi, ya'ni fanlararo aloqaga ham e'tibor berishiga ham boqliq. Darsda bu mavzuning o'qitish ahamiyati o'quvchi o'z fanining bilimdoni va o'z ustida tinmay ishlashi ilgor tajribalari bilan bevosita boqliq.

## **2.2. Farg`ona iqtisodiy rayonini mavzusini o`qitishning maqsadi, vazifalari va ta`lim- tarbiyaviy ahamiyati**

Har qanday darsning o'z maqsadi bo'lib, o'qituvchi darsga kirishdan oldin bajaradigan ishlarni rejalashtirib olishi, o'z konspektiga maqsad qo'yishi dars davomida esa o'sha maqsadni amalga oshirish bundan chetga chiqmaslik kerak. Darsning maqsadi uning mazmuni asosida belgilanadi. Maqsad va mazmun o'rtasida ma'lum bog'lanish mavjud. Biz "Farg`ona iqtisodiy rayoni"ni o'quvchilarga tushuntirayotganimizda, maqsadimizni chuqur anglagan holda yondashishimiz kerak.

Umuman dars maqsadi 5 ta yo'nalishni o'z ichiga oladi. "Farg`ona iqtisodiy rayoni"ni o'qituvchilar o'quvchilarga o'rgatayotganda ham mana shu maqsadlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishlari kerak.

**A. Ta'limiy maqsadi:** Darsning ta'limiy maqsadi o'quvchilarga nazariy bilim berish bo'lib, ishning mohiyatini, mazmunini yoritib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. "Farg`ona iqtisodiy rayoni"ni o'qitishda iqtisodiy rayonining iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari, aholisi, rayonining qishloq xo'jaligi, sanoati, yirik korxonalari, hamda yirik shaharlari haqida batafsil fikr yuritish darsning ta'limiy maqsadini tashkil etadi.

"Farg`ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilarda quyidagi bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi.

Andijon, Namangan, Farg`ona viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik o'rning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi;

O'zbekiston Respublikasi siyosiy kartasida viloyatlar maydonining XX asr davomida bir necha marotaba hamda so'ngi yillarda katta o'zgarishlarni boshidan kechirganligi;

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarining o'ziga xosligini;

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining tabiiy sharoiti va tabiiy resurlari o'rtasidagi tafovutlarni;

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari joylashuvi ya'ni ko'mir havzalarini, neft gaz havzalarini, marmar havzalarini;

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining tabiiy sharoitlari qishloq xo'jaligini rivojlantirishning qulayligini;

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining aholisi, uning ko'payishi, migratsiyasi, milliy – tarkibi, urbanizatsiya darajasi kabi bilimlarni;

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining xo'jaligi, uning viloyatlar orasidagi o'rni, va farqlari;

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining sanoati va uning yetakchi tarmoqlari haqidagi bilim va ko'nikmalarni egallashga imkon beradi.

**B.Tarbiyaviy maqsadi:** Buyuk pedagogik olim mumtoz shoirimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqrid qilinib kelgan, muammolarning diqqatlariga suyangan muqaddas bir vazifadur”.

Shunday ekan, mohir o'qituvchi, murabbiyning vazifasi o'quvchiga dars jarayonida faqat nazariy ilmiy masalalarni o'rgatishdan iboratgina bo'lib qolmay, balki u bolaning dunyoqarashi, didi va salohiyatini ham shakllantirish, har bir insonni erkin fikrlaydi degan etuk shaxs bo'lib tarbiyalashiga xizmat qilishi lozim.

Har bir etuk ma'rifatli murabbiy darsni ma'naviy va axloqiy, pok iymonli, insofli diyonatli, or-nomusli va mehr oqibatli shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qilishiga erishish lozim.

“Farg'ona iqtisodiy rayoni” mavzusining tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga qaratilgan.

“Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusini o`rgnash, bu yerdagi rayon va shaharlarning geografik o`rni, tabiiy sharoiti, siyosiy kartasi, tabiiy resurslari, qazilma boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, sanoat, qishloq xo`jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi bilimlarni egallash, ular haqidagi ko`nikmalarga ega bo`lish kabi tushunchalar o`quvchilarning bilimini va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi.

Jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti bilan o`zaro chambarchas munosabatda bog`langanligi, unga kelajak avlodni ham moddiy ta'minlovchi manba nuqtai nazari bilan bog`lovchi yuksak ma'rifatli va barkamol shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Zero olimlarmiz ta'kidlaganidek “Insonni inson qilib etishtiruvchi narsa bu tarbiyadur” .

“Farg`ona iqtisodiy rayoni”ni o`qitishning yana bir tarbiyaviy maqsadi o`quvchilarni aqliy, estetik, ekologik, vatanparvarlik kabi tarbiyaga yo`naltiriladi.

**V) Rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilar “Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusini o`zlashtirishlari bilan ular ongida quyidagi bilim va tushunchalar o`z o`rnini topadi:

“Farg`ona iqtisodiy rayoni” ning geografik o`rni uning ikki asosiy xususiyati bilan belgilanadi. Birinchidan bu iqtisodiy rayon mamlakatning shimoliy g`arbida, Tojikiston va Qig`iziston Respublikalariga yaqin qo`shni ekanligi o`ziga xos xususiyatdir.

“Farg`ona iqtisodiy rayoni” ning geografik o`rni hududining uncha katta emasligi, transportning yaxshi yo`lga qo`yilganligi tufayli bu viloyatlar yo bevosita chegaralanadi, yoki kichik masofagina ularni o`zaro ajratib turadi. Buning ustiga bu chegaralar ko`proq shunday joylardan o`tadiki, ular transport aloqalari uchun uncha to`siq bo`la olmaydi.

- “Farg`ona iqtisodiy rayoni” ning tabiiy geografik xususiyatlaridan foydali qazilmalarni o`rganish lozim.

- “Farg`ona iqtisodiy rayoni” ning tabiiy resurslari haqidagi ma'lumotlarni o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning dunyoqarashini oshirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish, erkin fikrlashni yuzaga keltirish, test bilan ishlash malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilardagi bilim, o'quv malakalarini rivojlantirish, o'quvchidagi aqliy, jismoniy xarakterini rivojlantirib, takomillashtirib boradi.

“Farg`ona iqtisodiy rayoni” o'rgatilayotganda o'qituvchi bu iqtisodiy rayondan avval o'rganilgan iqtisodiy rayonlarining muammoli vaziyatlarini yuzaga keltirib, jumboqlarni echa olishga ko'maklashishi va bu mazmundagi fikrlarni “Farg`ona iqtisodiy rayoni”ga tadbiq etish mumkin. Shuningdek, o'quvchilarga tarqatma test savollari, testlar berib, ularning bilimlarini shakllantirish mumkin. Masalan quyidagicha testlar tuzish mumkin.

“Farg`ona iqtisodiy rayoni” da maydoni bo'yicha eng katta viloyat qaysi:

A) Namangan

V) Andijon

S) Farg`ona

**D) Shuningdek, darsning o'quvchilarni ma'lum bir kasbga yo'naltirish maqsadi ham aniqlab olinishi kerak.**

Kelajakda har bir o'quvchi ma'lum bir kasbni egalashi uchun unda kasblar haqida yetarlicha tasavvur bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchi o'z oldiga biror bir kasbni egallashni maqsad qilib qo'yadi.

“Farg`ona iqtisodiy rayoni” da sanoatning mashinasozlik, neft-kimyo, yoqilqi energetika kabi, qishloq xo'jaligining chorvachilik, paxtachilik tarmoqlari taraqqiy etgan bo'lib, bu sohalarda mutaxassislar haligacha tanqis bo'lib kelyapti. Istiqbolli sohalarga o'quvchilarni qiziqtirish-o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir.

**E) Eng so'nggi maqsad o'quvchilar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish va ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.** Milliy istiqloq g'oyasini singdirish borasidagi birinchi navbatda qilinadigan ishlar yosh avlodni

vatanparvarlik, el yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va insoniylik fazilatlarini payvand qilishdan iboratdir.

Har bir o'quvchi "Farg'ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o'rganishda o'sha davrda yashab ijod qilgan olimlar, sayohatchilarning qilgan qahramonliklarini, qilgan tadqiq ishlari alohida e'tiborga olinib o'rganish alohida kasb etadi. Viloyatining geografik o'rni, chegaralari, foydali qazilmalari, tabiiy sharoiti va resurslarining xilma xilligi, ularning iqtisodiy rivojlanishi bosqichlarini kelajak avlodga targ'ibot qilish, tushuntirish va o'rgatishni maqsad qilib qo'yish lozim.

"Farg'ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o'rganishda har bir o'quvchi o'z oldiga tabiiy resurslarni qadrlash va uni asrab avaylab foydalanish, kelajak avlodning o'zi bilishi, tushunishi, qadrlashi hamda undan samarali foydalanish kabi tushunchalarni chuqur his qilmoqi lozim.

O'quvchilarga mustaqillikka hurmat, mustamlakachilikka nafrat tuyqusini shakllantirish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri.

Ta'lim va tarbiyaning bosh vazifalaridan yana biri jamiyatdagi barcha toifa kishilarni, xususan O'zbekiston aholisining qariyb 70 foizinin tashkil qiluvchi yoshlarni va ona Vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashdir. Bu o'z navbatida zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi. Har bir mavzu o'qitilishda o'qituvchining pedagogik mahorati birinchi o'rinni egallaydi. O'qituvchi dars maqsadidan kelib chiqqan holda darsni yangi texnologiya asosida o'tkazsa ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dars maqsadiga erishishda o'qituvchi o'qitish metodlarini juda mukammal bilishi katta o'rin egalaydi. Har bir o'qituvchi yoki biz bo'lajak o'qituvchilar ham har bir darsga kirishdan avval, o'z maqsadimiz va vazifalarimizni chuqur anglagan holda tayyorgarlik ko'rishimiz lozim. Shundagina biz o'qituvchilarni darsimizga qiziqtirib, o'zimizning jamiyatga kerakli inson pedagog bo'lib yetishimizga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

"Farg'ona iqtisodiy rayoni" mavzusini o'qitishda noan'anaviy dars usulini qo'llash maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Geografiya fanini o'qitishning

turli usullari va shakllari qaror topmoqda. Bunda butun jahonda tajribadan o'tgan turli xil yo'nalishlar bo'yicha qo'llaniladigan uslublar bizning umumta'lim maktablarida sinovdan o'tmoqda. Hozirgi kun davr talabiga mos ravishda noan'anaviy dars uslublarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon darslari bir necha o'nlab xususiyatlarga ega.

Bunda avvalambor o'quvchi shaxsini shakllantirishga, unda geografik madaniyatni rivojlantirishga e'tibor berish lozim. O'qituvchi o'quvchi bilimlarini faoliyati tashkil etishda asosiy tashkilotchi va maslahatchi bo'lishi kerak. O'quv vazifalari muntazam kuzatilib borilishi, o'quv jarayoni paytida o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqatlar, o'zaro aloqa, suhbat va tortishuvlar bo'lishi lozim. Darsda bevosita o'z hududimizni mamlakat miqyosida va boshqa davlatlarga nisbatan taqqoslash muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy darslarda, dars-seminar, dars-sinov, dars-o'yin, dars-konferentsiya, muammoli vaziyat, "mehmon chaqirish", "aqliy hujum", "rol o'yini", "qor uyumi", press konferentsiya kabi noan'anaviy dars uslublari qo'llanilmoqda. Quyida ushbu uslublardan foydalangan holda 8-sinflarda "Farg'ona iqtisodiy rayoni mavzusini o'qitish yo'l-yo'riqlari bilan tanishib chiqamiz. Hozirgi kunda ta'limni tashkil qilishning eng keng qo'llanilayotgan shakllaridan biri – seminar darsidir. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini hamda mustaqillik xislatlarini tarbiyalashdan iborat. Aholi tarkibini o'rganishda o'quvchilarni bir necha guruhlariga bo'lib, ularning bir qismiga viloyatlarining iqtisodiy geografik xususiyatlarining tumanlar bo'yicha uyga vazifa qilib beriladi. Masalan: Oltiariq tumanining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, Chust tumaniining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari va hokazolar.

O'quvchilarga o'qituvchi qanday adabiyotlar, jurnallar va gazetalardan ma'lumotlar olish mumkinligini tushuntiradi. Seminar mashg'ulotiga o'qituvchining o'zi ham puxta tayyorgarlik ko'radi. Chunki har bir o'quvchi mavzu doirasida to'plangan ma'lumotlarni o'qituvchi to'ldirib borishi lozim. Shu bilan birga har bir o'quvchi o'z ma'ruzasini xulosalashga o'rganish lozim.

O'quvchilar bilimi o'zlari bajargan ma'ruzalarining mazmuni va mohiyati rejasi va xulosasining mukammalligi va o'quvchi nutqi ravonligiga qarab o'qituvchi tomonidan baholanadi. Seminar darslari ko'p ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib, qisqa vaqt ichida ko'p hajmli ma'lumot olish imkoniyati tug'iladi va o'quvchilarda turli bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Zamonaviy dars metodlarining ayrimlari bilimlarni mukammalligiga, ayrimlari mustaqil fikr yuritish va izlanishga, ayrimlari esa maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini charxlashga va xulosalar qilishga o'rgatuvchi metodlardan "aqliy hujum", "muammoli vaziyat" metodlari ham bor. Bunda butun bir sinfga mavzuga doir biror savol tashlanadi. Masalan, mavzumizga doir "Farg'ona iqtisodiy rayoni" qanday tabiiy-iqtisodiy omillar asosida rivojlanmoqda. O'quvchilar bu savolga birin-ketin ayta boshlaydilar: tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari, ishchi o'rinlarining ko'pligi, texnologiyalarining zamonaviyligi va hokozolar. O'qituvchi bu javoblarni doskaga yozib boradi va o'quvchilarga tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ayting deb bergan savoliga o'quvchilar har bir javob bo'yicha qo'l ko'tarib tasdiqlaydilar. Bu savolga o'qituvchi o'z fikrini aytadi va aniq to'qri javobni belgilaydi. Yana shu mavzu bo'yicha o'rtaga viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari ko'proq rivojlangan degan savol tashlanadi. O'quvchilar unga sanoat va qishloq xo'jaligi hamda transport va boshqalar deb javob beradilar.

O'qituvchi: viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari qadimdan va hozirgi kunda ham rivojlangan tarmoqlarini belgilang degan savoliga o'quvchilar javoblari ichida eng ko'p to'qimachilik, neft, qishloq xo'jaligi, chorvachilik mavjud tarmoqni belgilaydilar.

Ushbu muammoli savollar o'quvchilarni ijodiy faoliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Savollar mazmuni jihatdan teran bo'lishi lozim va o'quvchi uning javobini izlashga xulosalar chiqarishga harakat qilmog'i lozim.

Darsda o'quvchilarning puxta bilim egallashlari, ko'proq ma'lumot to'plashlari uchun "qor uyumi" uslubidan foydalanish ham qo'l keladi. Bunda

o'qituvchi mavzuga doir savol beradi. Bu savolga har bir o'quvchi o'z bilimiga tayangan holda javob berishga harakat qiladi. "Farg'ona iqtisodiy rayoni" ning tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi qaysi yirik tumanlarga to'qri keladi, yoki viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi kelajakda qanday geografik oqibatlarni keltirib chiqaradi, yoki viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishida hozirgi kunda qanday muammolar mavjud, viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini rivojlanish darajasiga siz qanday yo'l- yo'riq ko'rsatgan bo'lar edingiz kabi savollar ushbu uslubda qo'llanishi mumkin. Ba'zi bir dars turlarida o'quvchilarning to'liq qatnashishi imkoni bo'lmaydi. Lekin "qor uyumi" uslubidan foydalanganda har bir o'quvchi o'z fikr mulohazalarini bildiradi. Shuning uchun darsni qunt bilan tinglashga va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Darsning mustahkamlash qismida savol javoblar bilan birga qatorlar o'rtasida musobaqalar, geografik o'yinlar, krossvordlarni echish kabi o'quvchilarning faolligini oshiruvchi uslublardan foydalanish qo'l keladi. Masalan, har bir qatordan bir vakil o'quvchi doskaga chiqarilib, bu uchta o'quvchiga viloyatlarning Asaka tumanini, Oltiariq tumanini, Chust tumanini yozing deb savol berish mumkin.

O'quvchining qaysi biri ma'lum bir vaqt ichida ko'proq javob yozsa, ushbu o'quvchi yutib chiqqanligini aytib berish lozim. Bu narsa nafaqat darsga qiziqishining ortib borishiga balki, o'quvchining kartalar bilan ham muttasil ishlab borishiga sabab bo'ladi.

### **2.3. Farg'ona iqtisodiy rayoni mavzusini o'qtishda qo'llanadigan inovatsion metodlar**

<b>Mavzu</b>	<b>Farg'ona iqtisodiy rayoni</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt: 2 soat</b>	<b>O'quvchilar soni: 30 – 35 nafar</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli:</b>	<b>Vizual ma'ruza</b>
<b>Amaliy mashg'ulotining rejasi:</b>	1. Iqtisodiy geografi o'rni va

	<p>tabiiy resurslari.</p> <p>2. Aholisi va mehnat resurslari.</p> <p>3. Xo‘jaligi.</p>
<b><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i></b>	Talabalarga Farg‘ona iqtisodiy rayonining xo‘jaligi haqida ma‘lumotlar berish.
<b><i>Pedagogik vazifalar</i></b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy rayonning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati haqida bilim berish.</li> <li>• Xo‘jaligida ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlari haqida ma‘lumotlar berish.</li> <li>• Statistik ma‘lumotlar asosida diagramma va jadvallar tuzishni o‘rgatadi.</li> </ul>	<b><i>O‘quv faoliyatining natijalari</i></b> O‘quvchi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy rayonning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati haqida bilimga ega bo‘ladi.</li> <li>• Xo‘jaligida ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlari haqida ma‘lumotlarni o‘rganadi.</li> <li>• Statistik ma‘lumotlar asosida diagramma va jadvallar tuzishni o‘rganadi.</li> </ul>
<b><i>Ta‘lim uslullari</i></b>	<b><i>Ma‘ruza, blits-savol, suhbat, munozara.</i></b>
<b><i>Ta‘lim vositalari</i></b>	<b><i>8-sinf atlas, O‘zbekiston iqtisodiy kartasi, A32 o‘lchamdagi qog‘ozlar, rangli markerlar.</i></b>
<b><i>Ta‘lim berish shakli</i></b>	<b>Ommaviy, kichik guruhlarda</b>
<b><i>Ta‘lim berish sharoiti</i></b>	<b>Guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan xona</b>
<b><i>Monitoring va bahosi</i></b>	Og‘zaki nazorat: tezkor-so‘rov

### Ma‘ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Oquvchi
<b>1-bosqich.</b> <b>Kirish</b>	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzu va rejasini ma‘lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg‘ulot an’anaviy tarzda o‘tishini	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.

<b>(5 min)</b>	e'lon qiladi( <i>suhbat, munozara</i> ).	
<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(30 min)</b>	<p>2.1. O`quvchilar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadilar. Blitz-so'rov o'tkazadi (1-ilova).</p> <p>2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida ma'ruzaning asosiy mazmunini daftarga yozishni taklif etadi (2-ilova).</p> <p>2.3. Muammoli savollarni o'rta tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Respublikaning xozirgi ma'muriy bulinishini izoxlang?</li> <li>- Respublikani iktisodiy rayonlashtirishni tushuntiring.</li> <li>- Rayonlashtirish uzi nima?</li> </ul>	<p>2.1.O`quvchilar javob beradilar, daftarlariga yozadilar.</p> <p>2.2. Ma'ruzaga e'tiborni qaratadilar va yozib oladilar.</p> <p>2.3. Yozib oladilar va o'z bilimlari bilan solishtiradilar.</p>
<b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy</b> <b>(10 min)</b>	<p>3.1. Mavzuga xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: Farg'ona iqtisodiy rayonining asosiy xo'jaligi nima?</p>	Eshitadilar, o'zlarini to'g'rilaydilar. Yozib oladilar.

### **Blitz-so'rov savollari**

### **1-ilova**

Fang'ona iqtisodiy rayonini, iqtisodiy geografik o`rni, irrigatsiya, inshoot, urbanizatsiya, metallurgiya, zavod, yoqilg'i energetika, yirik shaharlar, qazilma boyliklari.

## Tarqatma material

Fargʻona iqtisodiy rayoni maʼmuriy jihatdan Andijon, Namangan, Fargʻona viloyatlarini birlashtiradi, maydoni 18,3 ming km<sup>2</sup> (Fargʻona 6,7, Andijon 4,2, Namangan 7,4), aholisi 7 million 358,4 ming kishi (2006 y) (Fargʻona- 2,9 mln (39,1%), Andijon -2,4 mln (32,3%), Namangan- 2,2 mln (28,6%)).

Respublika hududining atigi 4,3 foizini egallagan(6 oʻrin) bu rayonda Oʻzbekiston aholisining 27,9 foizi yashaydi (1 oʻrin). U xoʻjalik jihatdan Respublikaning eng rivojlangan rayonlari qatoriga kirgan. Oʻzbekistonda ishlab chiqariladigan sanoat va qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining 1/4 qismi, shu jumladan paxtaning 27,0 foizi, xom ipakning 45,0 foizi ana shu rayon hissasiga toʻgʻri keladi. Fargʻona iqtisodiy rayoni deyarli hamma tomondan togʻ tizmalari bilan oʻralgan boʻlib, faqat gʻarbda uncha katta boʻlmagan yoʻlak (Xoʻjand darvozasi) orqali Mirzachoʻl tekisligi bilan qoʻshilgan. Iqtisodiy rayonning baland togʻlari orasida joylashganligi qadimdai xoʻjalik nuqtai nazaridan, ham tabiiy, ham iqtisodiy-geografik jihatdan maʼlum qulayliklar tugʻdiradi. Bu yerdan qadimda Buyuk Ipak yuli oʻtganligi natijasida unda qishloq xoʻjaligi, savdo, hunarmandchilik yaxshi rivojlangan.

Fargʻona vodiysi gʻarbdan sharqqa choʻzilgan boʻlib, Tyanshan va Hisor-Oloy togʻ tizimiga kiruvchi shimoli-gʻarbdan Qurama va Chotqol tizmalari, shimoli-sharqdan Fargʻona tizmasi, janubdan Turkiston va Oloy tizmalari bilan oʻralgan. Fargʻona vodiysi xududini yer yuzasi xoʻjalik jihatdan foydalanish imkoniyatlariga qarab birnecha mintaqalarga boʻlish mumkin.

### 1.Tekislik mintaqasi.

Vodiyning markazidan adir mintaqasigacha boʻlgan xududni ishgʻol qiladi. Birinchisi-vodiyning markaziy botiq qismi. Ikkinchisi-daryo hamda soylarning keng yoyilmalaridan iborat boʻlib, ular eng yaxshi oʻzlashtirilgan.

2. Adir mintaqasi (600-1200m balandlikda)-Rayonning xar jihatdan o'zlashtirilgan mintaqasi.

3. Tog'li mintaqqa. 1100-1200 metrdan boshlab balandlashib, tog' oldi va tog'li rayonlarga o'tib boradi.

4. Baland tog'li mintaqqa. Ma'muriy jihatdan Tojikiston va Qirg'izston respublikalariga tegishli bo'lib, vodiy xo'jaliklari ulardan yaylov sifatida foydalanadi.

Farg'ona vodiysida neft, gaz, oltingugurt kabi foydali qazilmalar, suv quvvati resurslari va qurilish materiallari, shuningdek shifobaxsh mineral suvlar hamda boshqa rekreatsiya resurslari mavjud.

Aholisining soni 7 million 358 ming kishi (2006 y), (Farg' 2878900, And 2375900, Nam 2103600) bu ko'rsatkich bo'ycha respubika iqtisodiy rayonlari orasida birinchi o'rinda turadi. 1 km.kv. ga 402 kishi to'g'ri keladi ((Farg' 431,5. And 567,1. Nam 285,1)). Aholi tog'li rayonlarida ancha siyrak, daryo va soylar yoyilma konuslarida esa zichdir. Iqtisodiy rayon aholisining 33 % shaxarlarda yashaydi(Farg' 28,1. And 29,4. Nam 34,6 ). Aholisining milliy tarkibi xilma-xil bo'lib, Andijon viloyatida o'zbeklar ko'pchilikni-91 foizni, ruslar 1,2 foizni, tatarlar 1,6 foizni, tojiklar 1,3 foizni, koreyslar 0,2 foizni, qirg'izlar 3,9 foizni tashkil etadi. Farg'ona viloyatida o'zbeklar ko'pchilikni-86,1 foizni, ruslar 2,9 foizni, tatarlar 0,4 foizni, tojiklar 5,7 foizni, koreyslar 0,4 foizni, qirg'izlar 2,1 foizni tashkil etadi. Namangan viloyatida o'zbeklar ko'pchilikni-87,4 foizni, ruslar 0,9 foizni, tatarlar 0,4 foizni, tojiklar 8,9 foizni, koreyslar 0,4 foizni, qirg'izlar 1 foizni tashkil etadi.

Aholining yosh tarkibi qo'yidagicha: foiz hisobida

	<b>0-16</b>		<b>16-60</b>		<b>60 dan yuqori</b>	
Andijon	824437	<b>34,7</b>	1387526	<b>58,4</b>	163937	<b>6,9</b>
Farg'ona	996099	<b>34,6</b>	1669762	<b>58</b>	213039	<b>7,4</b>
Namangan	759400	<b>36,1</b>	1207466	<b>57,4</b>	136734	<b>6,5</b>

Iqtisodiy rayon	<b>2579936</b>	<b>35,0</b>	<b>4264754</b>	<b>57,9</b>	<b>513710</b>	<b>7,1</b>
-----------------	----------------	-------------	----------------	-------------	---------------	------------

Aholining jinsiy tarkibi:

	Jami:	Ayollar	%	Erkaklar	%
Andijon	2375900	1187700	49,9	1188200	50,1
Fargʻona	2878900	1439100	49,9	1439800	50,1
Namangan	2103600	1047900	49,8	1055700	50,2
<b>Jami:</b>	<b>7358400</b>	<b>3674700</b>	<b>49,9</b>	<b>3683700</b>	<b>50,1</b>

Iqtisodiy rayon aholisining 3674700 ayollar(49,9), 3683700 erkaklar (50,1).

	Tabiiy koʻpaish	tugʻilish	Oʻlim
Andijon	14,5	20,1	5,2
Fargʻona	14,5	19,7	5,2
Namangan	15,3	20,2	4,9

Tabiiy koʻpaish (tugʻilish, oʻlim ).

Mehnat resurslari 4007400 kishi (54%), iqtisodiy faol aholi 2823600kishi, iqtisodiyotda band aholi 2819100 kishi.


	Mehnat resurslari	iqtisodiy faol	iqtisodiyotda band
Andijon	1319000	955700	954800
Fargʻona	1551800	1171600	1170600
Namangan	1136600	696300	693700
<b>Jami:</b>	<b>4007400 (54%)</b>	<b>2823600</b>	<b>2819100</b>

	Shahar	Shaharcha	Qishloq
--	--------	-----------	---------

Andijon	11	5	95
Fargʻona	9	10	164
Namangan	8	11	99
<b>Jami:</b>	<b>28</b>	<b>26</b>	<b>358</b>

Rayon aholisi har yili oʻrta hisobda 100 ming kishiga koʻpaymoqda.

Fargʻona rayoni xoʻjalik ixtisosida paxtachilik bilan bogʻliq tarmoqlararo majmua asosiy oʻrinni egallaydi. Fargʻona respublikaning yirik paxtachilik va pillachilik rayonlaridan hisoblanadi. Oʻzbekistonda yetishtiriladigan paxtaning 27,0 foizni, pillaning 44,5 foizni beradi (7-rasm).



7-rasm. Fargʻona iqtisodiy rayoni.

Boshqa bir qator tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan. Hozirgi vaqtda xilma-xil qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan birga ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan keng tarmoqlar tizimi ham shakllangan. Amalda tarixiy davrlardan yaxshi rivojlangan to‘qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, charm-poyabzal tarmoqlari, eng zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hozir ham rayonda muhim o‘rin tutadi.

Farg‘ona respublika iqtisodiy rayonlari orasida yengil va oziq-ovqat sanoatining xilma-xil mahsulotlarini yetishtirishda hozir ham yetakchilik qiladi. Andijon, Farg‘ona, Namanganda ip-gazlamalar, so‘nggi yillarda tashkil qilingan Kosonsoyda jun gazlamalar ishlab chiqarishning yirik korxonalari tashkil qilingan. Rayon respublikaning bir qator og‘ir sanoat tarmoqlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham ahamiyatlidir. Oltiariq va Farg‘onada neftni qayta ishlash zavodlari so‘nggi yillargacha yagona edi. Kimyo sanoati, ayniqsa azotli o‘g‘itlar (Farg‘ona), gidroliz sanoati mahsulotlari (Qo‘qon, Andijon) furan birikmalari va kimyoviy tola (Farg‘ona) sun‘iy charm (Farg‘ona) ishlab chiqarishda respublikada yetakchilik qiladi.

Mashinasozlik sanoati mustaqillik yillarida juda tez o‘rishga erishdi. Andijondagi irrigatsiya-melioratsiya mashinasozligi, Farg‘ona va Namangandagi mexanika va elektrotexnika, tarmoqlariga qo‘shimcha Asakada avtomobilsozlikka asos solindi. Uning o‘ndan ortiq filiallari qurildi. Quvasoy energetika va qurilish materiallari sanoatining yirik markaziga aylantirildi.

	<b>Qo‘shma korxonalar</b>
Andijon	69
Farg‘ona	76
Namangan	52
<b>Jami:</b>	<b>197</b>

### Korxonalar va tashkilotlar soni

Andijon	23200
Fargʻona	30100
Namangan	19500
<b>Jami:</b>	<b>72800</b>

### Qishloq xoʻjalik mahsulotlari i/ch (ming t)

Viloyatlar	Donli ekinlar	Sabzavotlar	Kartoshka	Mevalar
Andijon	536,4	562,6	90,7	22,2
Fargʻona	672,4	316,9	108,7	24,1
Namangan	453,3	281,2	81,6	29,6
<b>Jami:</b>	<b>1662,1</b>	<b>1160,7</b>	<b>281</b>	<b>75,9</b>

### Chorva mollari soni

Viloyatlar	Qoramollar	Qoʻy va echki	Yilqi	Chuchqa	Parrandalar
Andijon	548400	632500	6000	1600	2441600
Fargʻona	558800	471000	5200	4200	1372300
Namangan	407000	525200	5700	200	858300
<b>Jami:</b>	<b>1514200</b>	<b>1628700</b>	<b>16900</b>	<b>6000</b>	<b>4672200</b>

### Transport tarmoqlari

Viloyatlar	Temir yo‘l km	Avtomobil y km		
Andijon	155,8	2500		
Farg‘ona	228,6	3900		
Namangan	144,6	3200		
<b>Jami:</b>	<b>529</b>	<b>9600</b>		

## **Xulosa**

Jamiyat taraqqiyotini yetuk o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liq. Ayniqsa hozirgi murakkab axborotlarni georafik hodisa sabab-oqibatlarni, tabiiy va iqtisodiy georafik tushunchalarni ular ongiga yetkazish, shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab dasturi o'quvchilarga georafiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni ham o'z zimmasiga oladi. Har bir o'quvchi darsda olgan ko'nikma va malakalari asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo'ladi. Bularning barchasi geografiya o'qituvchisidan maxsus metodik tayyorgarlikga ega bo'lishni talab qiladi.

Uning metodik bilim va malakasi zamon talablariga javob bera oladigan bo'lishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishi, o'z ish tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishi, boshqa o'qituvchilarning tajribasini umumlashtirish va samarali shakllar, metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

O'zbekiston geografiyasi uning hozirgi qudratini anglashga va kelajakda mamlakatimizning buyuk davlat b'lishi uchun asos bo'ladigan manbalarini anglashga imkon beradi.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimiz jahonga tanilayotgan bir paytda, xorijga boradigan har bir fuqaro shu yurtning faqat tarixinigina emas balki hozirgi qudratini ham bilishi zarur. Hozirgi holatini bilish uchun esa, uning geografiyasini to'la va atroflicha bilish lozim bo'ladi.

O'zbekiston geografiyasini o'rganishda mamlakatimizning jahonning tabiiy va iqtisodiy kartalarida tutgan o'rni, umumiy tabiiy geografik sharoiti va tabiiy o'lkalarining asosiy xususiyatlari, iqtisodiy geografik asoslari, iqtisodiy majmua va rayonlari, chet el investitsiyalari va qo'shma korxonalar qurish, transport va tashqi iqtisodiy aloqalarini bilishi lozim.

O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash yo'llari talaygina. Bulardan keng tarqalganlari: savol-javob, doska oldida og'zaki yoki yozma javob, frontal so'rash,

nazorat ishlari, test sinovlari o`tkazish yo`li bilan bilim darajasini baholash kabilardir. Bulardan tashqari, ijodkor o`qituvchilar tomonidan o`quvchi bilimini sinashning yangidan-yangi usullari ishlab chiqilgan bo`lib, ular galma-galdan almashtirilib qo`llab borilishi, dars samaradorligini oshirishda, o`quvchilarning ushbu fanga qiziqishini uyg`otishda asosiy omil bo`lib xizmat qiladi. Bu bilan bog`liq usullar bir qancha pedagogik jurnallarda, jumladan, «Xalq ta`limi» jurnalining sahifalarida tez-tez yoritilib borilmoqda.

Maktab iqtisodiy geografiya kursida nazariy masalalariga e`tibor ancha kuchaytirilgan, asosiy geografik tushunchalar, ular mazmunini mukammal tahlil qilishga, sabab-oqibat aloqalarini chuqurlashtirishga ko`proq ahamiyat berilgan. Hozirgi zamon iqtisodiy geografiyasi ishlab chiqarish kuchlari va aholini joylashtirish, tabiiy resurslarni majmuali o`rganish, ularni muhofaza qilish va tabiatni o`zgartirish muammolarni tadqiq etish bilan chegaralanmaydi. Hozirdanoq moddiy boyliklar ishlab chidarilmaydigan sohalar geografiyasini yaratish borasida ilk qadamlar qo`yildi, moddiy boyliklarni ishlab chidarilmaydigan sohalarni o`rganishga oid ko`plab iqtisodiy geografik tadqiqotlar olib borilyapti. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, rayonlar xo`jaligini kompleks holda bir-biriga bog`lashda, tabiiy kattaligi, ko`rib chiqiladigan jarayonlarning o`zgaruvchanligi, hozirgi zamon iqtisodiy geogarfiyasiga eng yangi metodlarni jumladan, matematik metodni ya`ni modellashtirish joriy eta borishni taqozo etadi. Hududiy ishlab chidarish majmualari va iqtisodiy rayonlarini o`rganishning ko`pdan-ko`p metodlari orasida eng progressiv metodlardan biri energetika ishlab chiqarish sikllari metodidir. Bu metod hududiy ishlab chiqarish majmualari va ularning o`zaro bog`langan tarkiblarning tashkil topishi qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Geografiya darslarini shunday tashkil etish kerakki, unda o`qituvchi faqat materialni ifodalovchi, tushuntiruvchi, o`quvchi esa, tinglovchi bo`lib qolmasligi kerak. Zamonaviy dars jarayonida o`quvchilarni mustaqilligini oshirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ta`lim muammoli tarzda tashkil etilishi lozim.

### **Adabiyotlar:**

1.Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.-326b.

2.Karimov I.A. Barkamol avlod orzus. T.: Sharq, 1999.- 182 b.

3.Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.

4.Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.

5.Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994.

6.Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. – T.: O'zbekiston, 2006.

7.Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.– T.: O'qituvchi, 2007.

8.Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limda hoan'anaviy darslar va interfaol usullrdan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi. 2006. - 76 b.

9.Ibragimov X.I.,Yo'ldoshev U.A.,Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya.

-T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B. 76-96 .

10. Kalonov B.H., Hayitov A,T., Erdonov L.N. O'zbekiston geografiyasini maktabda o'rganish.-Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2004.-254b.

11. Kalonov B. H. Janubiy O'zbekistonda paxtachilik. – T.: Muloqot jurnali, 2005. B.15-16.

12.Kalonov B. H. Mamatov A. Ommobop geografiya.

– T.: Zar qalam nashriyoti, 2006. - 160b.

13.Musayev R., Musayev J. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.

8-sinf darsligi. -T.: Sharq, 2014. B.142-146.

14.Nabiyev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Universitet, 2000.- 86 b.

15. Ro'ziyev A., Abirqulov Q. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. – T.: Sharq, 2001.- 144 b.
16. Soliyev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliyev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003.- 304 b.
17. Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009.- 212 b.
18. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: Mumtoz so'z, 2010.- B.189-211.
19. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot.  
-T., 2013.- 226 b.
20. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (1989-2009 yy.). Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2010.- 276 b.
21. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
22. Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.  
- T.: Mumtoz so'z, 2013.- 158 b.
23. 8-sinf atlas. -T.: O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi, 2014.-B.50.
24. Воронин В.В., Шаригин М.Д. Экономическая, социальная и политическая география.- Самара, 2006. - 254с.
25. Максаковский М.Р. Общая экономическая и социальная география.  
- М.: ВЛАДОС, 2009.- 356с.
26. Саушкин Ю.Г. Географическое мисление.  
– Смоленск.: Ойкумена, 2011.- 256с.
27. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Rustamova Mohiba Raxmatulla qizining “Farg`ona iqtisodiy rayoniga iqtisodiy geografik ta`rif ” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**X U L O S A**

Mazkur bitiruv malakaviy ishi “Farg`ona iqtisodiy rayoniga iqtisodiy geografik ta`rif” mavzusini o`rganishning asosiy jihati Andijon, Namangan va Farg`ona viloyatlari geografiyasi hisoblanadi. “Farg`ona iqtisodiy rayoniga iqtisodiy geografik ta`rif” mavzusini o`rganishda eng asosiy e`tibor viloyatlarning geografik o`rni, aholisi va xo`jalik tarmoqlari yetakchi o`rin egallaydi. Bu manbalar darslikdagi manbalarni to`ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o`taydi. Umumiy holda aytadigan bo`lsak, umumta`lim maktablarining 8-sinfida o`tiladigan “Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusini o`rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko`nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g`oyalarini jamlagan holda o`rganildi. Farg`ona iqtisodiy rayonini o`rganishda rivojlanayotgan viloyatlarning xo`jaligidagi rivojlanish sabablarini, iqtisodiy, madaniy yutuqlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografik mehnat taqsimoti mazmuniga o`z ta'sirini ko`rsatmoqda.

Hozirgi zamon iqtisodiy geografiyasi ishlab chiqarish kuchlari va aholini joylashtirish, tabiiy resurslarni majmualari o`rganish, ularni muhofaza qilish va tabiatni o`zgartirish muammolarini tadqiq etish bilan chegaralanmaydi. Hozirdanoq moddiy boyliklar ishlab chidarilmaydigan sohalar geografiyasini yaratish borasida ilk qadamlar qo`yildi, moddiy boyliklarni ishlab chidarilmaydigan sohalarni o`rganishga oid ko`plab iqtisodiy geografik tadqiqotlar olib borilyapti.

Talaba Rustamova Mohiba Raxmatulla qizi tomonidan ““Farg`ona iqtisodiy rayoniga iqtisodiy geografik ta`rif” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish bo`lib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:**

**g.f.n., dots. B.H.Kalonov**

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Rustamova Mohiba Raxmatulla qizining “Farg`ona iqtisodiy rayoniga iqtisodiy geografik ta`rif” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

“Farg`ona iqtisodiy rayoniga iqtisodiy geografik ta`rif” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida Farg`ona iqtisodiy rayoniining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy baho berilgan bo`lib, iqtisodiy rayon mamlakat hududiy mehnat taqsimotida o`zining qishloq xo`jaligi, xususan paxta va pilla, meva va uzum, sanoatida esa avtomobilsozlik, to`qimachilik, kimyo va neft kimyo sanoati bilan ajralib turadi. Farg`ona iqtisodiy rayoni O`zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizini, sanoatini 23,9 foiz, qishloq xo`jalik mahsulotining 26,1 foizini ta`minlaydi. Shuningdek, bu yerda neft, qurilish va farmatsevtika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Mintaqa qator o`zining betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u respublikamizning sarqida tog`li hududida joylashgan, mintaqada urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi yuqori, demografik rivojlanish, ya`ni aholi tabiiy ko`payishi o`rta darajada.

Uncha katta maydonga ega bo`lmagan Andijon viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida, milliy iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o`ynaydi. U mamlakatimizning 6,6 foiz yalpi ichki mahsulotini, 13,6 foiz sanoat, 9,9 foiz qishloq xo`jalik mahsulotini ta`minlaydi. Viloyatning xo`jaligi industrial-agrar yo`nalishga ega bo`lib, u eng avvalo, mashinasozlik (avtomobilsozlik), to`qimachilik sanoat tarmoqlariga, paxta va pilla yetishtirishga ixtisoslashgan.

Mamlakat mehnat taqsimotida Namangan viloyati, eng avvalo, dehqonchilik paxta, pilla, meva, uzum yetishtirish, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan. U respublika yalpi hududiy mahsulotining 4,2, sanoat mahsulotining 2,7, qishloq xo`jaligi mahsulotining 7,9, chakana savdo hajmining 6,1 foizini beradi.

Farg`ona viloyati mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 6,7 foizini, sanoat ishlab chiqarishini 7,6 foiz, qishloq xo`jalik mahsulotlarining 8,3 foiz ta`minlaydi.

Mazkur BMIda Farg`ona iqtisodiy rayonini mavzusining maktab geografiyasi ta'limida tutgan o`rni, Farg`ona iqtisodiy rayonini mavzusini o`qitishning maqsadi, vazifalari va ta`lim- tarbiyaviy ahamiyati, Farg`ona iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitishda qo`llanadigan metodlar bayon etilgan. Har bir iqtisodiy rayonni o`quvchilarga o`qitish, o`rgatish qanchalik muhim bo`lsa, bu mavzuni o`rganish ham shunchalik katta ahamiyatga ega.

**Taqrizchi: Navoiy shahridagi 11-son maktabning  
geografiya fani oqituvchisi R.Abdiyev**

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Rustamova Mohiba Raxmatulla qizining “Farg`ona iqtisodiy rayoniga iqtisodiy geografik ta`rif” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

Farg`ona iqtisodiy rayoniining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy baho berilgan bo`lib, iqtisodiy rayon mamlakat hududiy mehnat taqsimotida o`zining qishloq xo`jaligi, xususan paxta va pilla, meva va uzum, sanoatida esa avtomobilsozlik, to`qimachilik, kimyo va neft kimyo sanoati bilan ajralib turadi. Farg`ona iqtisodiy rayoni O`zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizini, sanoatini 23,9 foiz, qishloq xo`jalik mahsulotining 26,1 foizini ta`minlaydi, pullik xizmatlarda uning ulushi 24,6 foiz, chakana savdoda 22,8 foiz, tashqi savdo aylanmasida – 16,0 foiz. Shuningdek, bu yerda neft, qurilish va farmatsevtika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Mintaqa qator o`zining betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u respublikamizning sarqida tog`l hududida joylashgan, mintaqada urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi yuqori, demografik rivojlanish, ya`ni aholi tabiiy ko`payishi o`rta darajada.

Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o`qitiladigan “Farg`ona iqtisodiy rayoni” mavzusini o`rganishda o`quvchilar o`z fikr va mulohazalarini amalda bajarishga intiladilar. Farg`ona iqtisodiy rayonining xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan aloqalari haqidagi bilim va ko`nikmalarni o`z ichiga oladi. Ayniqsa o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to`ldirish orqali o`quvchilarda geografik ko`nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Maktab iqtisodiy geografiya kursida nazariy masalalariga e`tibor ancha kuchaytirilgan, asosiy geografik tushunchalar, ular mazmunini mukammal tahlil qilishga, sabab-oqibat aloqalarini chuqurlashtirishga ko`proq ahamiyat berilgan. Talaba Rustamova Mohiba tomonidan yozilgan BMI tugallangan ish bo`lib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Taqrizchi: Geografiya o`qitish metodikasi kafedrası**  
**katta o`qituvchisi Sh.Sh. Norov**

# HIMOYA VAQTI

---

---

## Bitiruv malakaviy ishini baholash mezonlari

Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya o`qitish metodikasi kafedraslari

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi

Mavzuning dolzarbligi	Bajarilgan ishing mustaqillik darajasi	Ishning amaliy ahamiyati	Adabiyotlardan foydalanish darajasi
12	32	16	10

Ishning rasmiylashtirilishi	Bitiruv malakaviy ishinlari himoyasi	Umumiy ball	№
10	20	100	

DAK raisi: \_\_\_\_\_

DAK a'zolari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_